

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI

«MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI»

Bilim sohalari: 500 000 — Sog'liqni saqlash va ij'timoiy ta'minot

300 000 — Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohalari: 510 000 — Sog'liqni saqlash

320 000—Ishlab chiqarish texnologiyalari

Mutaxassislik: 5A320406 —Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi tanlov modulining o‘quv uslubiy majmuasi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida 2020 yil __ “__” __dagi__ -sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan modul dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Yo.S. Karieva - Toshkent farmatsevtika instituti Dori turlari texnologiyasi kafedrasini mudiri, f.f.d., professor

Z.A. Nazarova - Toshkent farmatsevtika instituti Dori turlari texnologiyasi kafedrasini professori, f.f.d

Taqrizchilar:

A.D. Tadjieva - Dori vositalar sanoat texnologiyasi kafedrasini dotsenti, farm.f.n.

Sh.A. Temurova - O‘zR SSV “Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi ”DUK” narkotiklarni nazorat qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, f.f.n.

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi soha uslubiy kengashida 2020 yil_3.07__dagi - 11-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi

Z. O‘Usmanalieva

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashida 2020 yil 7.07__dagi 12 -son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

Z.A. Yuldashev

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Kengashida 2020 yil _9.07dagi 12 -son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan

Kengash ilmiy kotibi

V.R.Xaydarov

MUNDARIJA

| I | O‘QUV MATERIALLAR: | № |
|----------|---|-----------|
| | 1.1. Ma’ruza mashg‘ulotlari | |
| | 1-Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitish bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil qilish | 5 |
| | 2-Mavzu: Maxsus fanlarini o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari | 11 |
| | 3 -Mavzu: Davlat ta’lim standartlari, uning talablari, o‘quv rejalari | 14 |
| | 4 -Mavzu: Ta’lim jarayonini tashkil qilish va uni rejalashtirish | 19 |
| | 5 -Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitish metod va vositalari. Umumiy didaktik shakllari | 22 |
| | 6 -Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Didaktik shakllari. Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish | 25 |
| | 7-Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni ilmiy nazariy asoslari | 29 |
| | 8 -Mavzu: O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish | 34 |
| | 9 -Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quv amaliyotini va o‘quv ishlab chiqarish ishlarini tashkil etish | 36 |
| | 10-Mavzu: Mamlakatimizda milliy tibbiyot va farmatsevtika ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4310 | 39 |
| | 1.2. Amaliy mashg‘ulotlar | |
| | 1 -Mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati | 42 |
| | 2-Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. | 43 |
| | 3 -Mavzu: Maxsus fanlarning didaktik ta’minotini ishlab chiqish" | 44 |
| | 4-Mavzu: Mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash | 46 |
| | 5 -Mavzu: “Maxsus fanlarning o‘quv-uslubiy mashg‘ulotlarini ishlab chiqish | 49 |
| | 6 -Mavzu: Talabalarning o‘quv bilish faoliyatini tashqil etish. Axborot texnologiyalardan foydalanish | 54 |
| | 7 -Mavzu: Talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg‘ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari Innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanish | 55 |
| | 8 -Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitishda mashg‘ulotlarning rejasini tuzish, mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash | 63 |

| | | |
|------------|---|------------|
| | 9-Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitishda ma’ruza matnini tayyorlash | 66 |
| | 10. -Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitishda ochiq mashg‘ulotlarni o‘tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish | 68 |
| | 11-Mavzu:Maxsusfanlarni o`qitishda yil, semester bo`yicha o`quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish | 69 |
| | 12-Mavzu:Auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish | 71 |
| | 13 -Mavzu: O‘qirish jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llash | 72 |
| | 14 -Mavzu:O`qitish jarayonida interfaol texnologiyalarni qo`llash | 75 |
| | 15 -Mavzu:Seminar va amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish texnologiyasi | 78 |
| | 16 -Mavzu: Laboratoriya mashg`ulotlarini tashkil etish va o`tkazish metodikasi | 80 |
| | 17 -Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’lim va uni tashkil etish metodikasi | 82 |
| | 18-Mavzu:Maxsus fanlardan kurs ishini tayyorlash metodikasi83 | 83 |
| | 19-Mavzu:Maxsus fanlardan o‘quv amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish | 85 |
| | 20-Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida reyting tizimini qo‘llash | 87 |
| II | MUSTAQILTA’LIM MAVZULARI | 89 |
| III | GLOSSARIY | 91 |
| IV | ILOVALAR: | |
| | Modulning o`quv dasturi | 94 |
| | Modulning ishchi o`quv dasturi | 103 |
| | Tarqatma materiallar | 114 |
| | Testlar | 133 |
| | Modul bo‘yicha talabalar bilimni baxolash mezonlari | 135 |

I.O‘QUV MATERIALLAR:

1.1. Ma`ruza mashg`ulotlari

1-Mavzu: “ Maxsus fanlarni o‘qitish bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil qilish Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni isloh qilish “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “
- 1.2. Ta’lim mazmuni, shakllantirishning mohiyati va nazariyasi
- 1.2.1. Ta’lim mazmunini tanlash tamoyillari va me’yorlari
- 1.3 .MFO‘ ni tashkil etishning shakl va metodlari, ularga qo‘yilgan talablar
- 1.3.1. Asosiy qoidalar
- 1.3.2. O‘qitish shakllari
- 1.3.3. O‘qitish metodlari
2. Tibbiyot va farmatsevtika kadrlarini tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta’limi jarayonlariga o‘qitishning kredit-modul tizimini joriy etish

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim, metodika, metodologiya, metod, reproduktiv va produktiv faoliyat, didaktika, o‘qitish shakllari.

*O‘zbekiston Respublikasida ta’limni islox qilish
Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*

Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u har bupimizdan - astoydil, betinim, izchil mehnatni ta’lab etadi.

I.A.Karimov.

"Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 1992 yil 2-iyulda qabul qilingan.

I. Umumiy kadrlar 30 ta moddadan tashkil topgan va 5 ta bo‘limga bo‘lingan moddalar:

1. Qonunning maqsadi, har kim bilim olish hukuqi konstitutsiyada bslgilantan (konstitutsiyaviy huquqlarni qonun ta’minlashga qaratilgan).
2. Qonun xujjatlari.
3. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatini prinsiplari:
 - Ta’lim va tarbiyaning insonparvar, dsmokratik xarakterda ekanligi;
 - uning uzluksizligi va izchanligi;
 - Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limining majburiyligi;
 - O‘rta maxsus kasb- xunar ta’limining akademik litseyda yoki kasb-xunar kolleжда o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
 - Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
 - Davlat ta’limi standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
 - Ta’lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
 - Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirishni;
 - Ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg‘unlashtirishi;
4. Bilim olish xuquqi.
5. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi.

6. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi (akkreditsiyalash attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi).

7. Davlat ta'lim standartlari (mazmuniga sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi) bajarish majburiy -

8. Ta'lim berish tili Davlat tili qonun bilan tartibga solinadi.

TA'LIM TIZIMI VA TURLARI

9. Ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasida yagona va uzluksizdir;

10. Ta'lim turlari:

Maktabgacha ta'lim;

Umumiy o'rta ta'lim;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

Oliy ta'lim;

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

1. O'zbekiston Respublikasida ta'limni isloh qilish.

Xozirgi vaqtda eng muhim masalalardan biri - bu fan, texnik, ilg'or texnologiyalar yutuqlari asosida ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlanish uchun maqsadlarni, mazmunini uslub va vositalarni, ularni tashkiliy turlarini ilmiy jihatidan ta'minlashdir.

Davlatimiz siyosati-kadrlar tayyorlash to'g'risida uzluksiz ta'lim tizimi orqali xar tomonlama etuk shaxsni tayyorlashga qaratilgan. Albatta, oliy ta'lim ushbu tizimda alohida o'rinni egallaydi. Chunki u mustaqil turi bo'lib O'z R ning ta'lim to'g'risida va kadrlar tayyorlash to'g'risidagi qonunlarga binoan bajariladi, oliy ta'limni oldiga qo'yilgan asosiy masalalari bor:

Mavjud bo'lgan dasturlar asosida yuqori darajada unumli (natijali) ta'lim bo'lishi va malakali kadrlar tayyorlanishi;

Har bir oliygox o'qituvchining malakasida ikkita mutaxassislik yotadi: maxsus va pedagogik har doim u quyidagi savollarni echimini qidiradi: Nima uchun o'qitish kerak? Nimaga o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak?

Maxsus bilimidan tashqari o'qituvchida pedagogik bilimlar minimumi bo'lishi kerak. SHu oliygox o'qituvchisini tayyorlashda asosiy vazifalar, bu:

1. *Pedagogik malakasini shakllantirish;*

2. *YAngi professional tafakkur (dunyoqarash)ni shakllantirilishi;*

3. *O'qituvchining faoliyatining asosi-pedagogik metodologiyani egallab olishi;*

4. *O'quvchining professional faoliyatiga yaqinlashgan uslublarni, ta'lim texnologiyalarini egallab olish.*

Ta'lim turlari:

Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot laboratoriya mashg'uloti, o'quv konferensiyalar, konsultatsiyalar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv amaliyoti kurs va diplom ishlari. Talabaning mustaqil o'qishi.

Ma'ruza – bu ilmiy masalani mantiqiy bir tekisda terilgan, tizimli ketma – ketlikda va aniq bayon etilishi. S.N.Arxangelskiy belgilaganicha, ma'ruza eng

samarali eng ishonchli, intuitsiyani, erkinlikni, hisni, ongni yuzma – yuz jonli kontakti turidir, ya'ni o'qituvchini hamma boyligi bilan talabaning ichki dunyosini aloqasi bog'lanishi, ma'ruza ta'limini mo'ljallovchi, informatsion, metodologik va tarbiyalovchi funktsiya soni bajarishni ta'minlaydi.

Mo'ljallovchi funktsiya – bu talabalar e'tiborini o'quv materialidagi eng asosiy joylarga qaratadi, ayniqsa uni kelajakdagi mutaxassislik faoliyatida.

Informatsion funktsiyasi – asosiy ilmiy dalillar holat va hulosalarni ochib beradi.

Metodologiyasi (uslub) – ilmiy izlanishlarni ochib borishda, tadqiqot usullarini solishtirishda yordam beradi.

Tarbiyalovchi funktsiyasi – o'quv materialini baholashda qiziqishni oshirish va isbotlarni tushinishda ishlatiladi.

Ma'ruzada asosiy hal bo'ladigan masalalar:

- Ilmiy bilish yeg'indisini ma'lum qilish;
- Ilm va tadqiqot metodologiyasi bilan tanishtirish;
- O'quv darslarida mehnat turlarini bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatish;

So'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasi hisobiga olishi.

3 xil ta'lim – umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limda uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Dasturda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o'zlashtirish, o'qitish jarayonini interaktiv pedagogik asosida tashkil etishga, mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e'tibor berishi zarur.

Dastur tegishli kafedra, uslubiy kengashda muhokama qilinadi. 2 ta tashqi taqriz va tavsiya asosida rektor tomonidan tasdiqlanadi.

Namunaviy o'quv dasturi oliy o'quv yurtlarida ilmiy - uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash ekspertizasidan o'tish shart va uning tavsiyasi bilan vazifalik tomonidan ro'yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Ta'lim qonuniyatlari

Didaktikada ijtimoiy – pedagogik qonuniyatlari mavjud, ular:

- Oliy ta'lim jamoa ishlab chiqarish bilan belgilanadi
- Oliy ta'lim talabnomaning tarbiya va rivojlanish jarayoni
- Oliy ta'lim tashqi muhitga bog'liq yoki qaramdir
- O'qitish maqsadi, ta'lim mazmuni, uning usullari va turlari bir-biriga

mujassamdir;

- O'quvchi va o'qituvchining maqsadi mos bo'lishi
- O'quv jarayoniga talabani jalb etilishi muvaffaqiyatli va tez o'qishni

garovidir.

O'zbekiston Respublikasi demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy maktabi o'z rivojlanishining yangi bosqichini boshdan kechirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi oliy ta’limning tubdan isloh qilish vazifalarini belgilab berdi, bu islohotlar yuksak axloqlilik va ma’naviylik talablariga javob bera oladigan, rivojlangan, demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishni ko‘zda tutgan.

Islohotlar oliy ta’lim sohasidagi davlat siyosati prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayoni bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish vazifasini amalga oshirishga qaratilgan o‘z mazmuni bilan ifoda etiladi.

Ta’lim mazmuni nazariyasi ta’lim jarayonining mohiyati, maqsadi vazifalarini asoslab berishni nazarda tutadi.

Respublikamiz ta’lim jarayoni davlat standartlari, o‘quv rejaları asosida tashkil etiladi. MFO‘ning tashkil etilishi shakl va metodlari talabalarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish masalasini xal etadi.

Asosiy vazifa-chuqur fundamental bilimga va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan keng yo‘nalishli mutaxassislarni shakllantirishdir.

Oliy maktablarda muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan oliy ta’limning maqsadi xozirgi davr talablariga javob beradigan, ilmiy texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta’minlay oladigan, yuksak, ma’naviy hamda axloqiy sifatlariga ega bo‘lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlashdir.

Oliy ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardir:

1.davlat ta’lim standartlariga muvofiq ravishda xozirgi zamon ta’limiy va kasbiy ta’lim dasturlari asosida malakali kadrlartayyorlash;

2.jamiyat talablariga javob beradigan, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga, zamonaviy fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan holda kadrlar tayyorlashni tashkil etish va uni muntazam takomillashtirish.

3.yoshlarni milliy istiqlol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlanil bilish asosida, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat, vatanga, oilaga, atrof muhit, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash;

4.ahloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarni saqlash hamda ularni boyitish;

5.shaxsning intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanish talablarini qondirish;

6.o‘quv jarayonini yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini, ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini joriy mexanizmlarini kiritib borish;

7.fan, texnika, texnologiya ravnaqi, ilmiy pedagogik kadrlar hamda ta’lim oluvchilarning ilmiy tadqiqotlari samaradorligi va ijodiy faoliyatini o‘stirish, olingan natijalarini ta’lim jarayonida foydalanish;

8.oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;

9.respublika oliy ta’lim tizimiga byudjetdan tashqari vositalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

10.yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar bilan oliy ta’lim sohasida o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish.

Ta'lim mazmunining mohiyati va nazariyasi unga bo'lgan turli yondashuvlar bilan belgilanadi:

- bilimga yo'naltirilgan yondashuv;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;

Avval shunday bo'lgan bo'lsa hozirgi davr tizimini shakllantirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini maydonga olib chiqdi. SHaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxsning tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari birligi rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi.[I.YA.Larner, M.N.Skatkin, V.S.Lednev, B.M.Bish-Bada, A.V.Petrovskiy].

Ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari va me'yorlari

Ular V.V.Kraevskiy tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagilardir:

- 1.Ta'lim mazmunining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs muvofiqligi tamoyili
- 2.O'qitishning mazmun protsessual jihatlarining yagonaligi tamoyili
- 3.Turli darajadagi ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi tamoyili
- 4.Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili
- 5.Ta'lim mazmunining asoslanganligi tamoyili
- 6.Ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi tamoyili.

Maxsus fanlarni o'qitish (MFO) ni tashkil etishning shakl va metodlariga qo'yiladigan talablar:

1) o'quv jarayoni o'zining o'qitish maqsadi, o'qitish va o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalaridan iborat murakkab tizim bo'lishi. Ular o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ketgan

2) o'quv jarayoni nisbatan yirik tizim bo'lgan pedagogik jarayonning tag tizimidir. Bu tag tizim o'qitish, ta'lim berish va tarbiya jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllari:

leksiya, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, maslahatlar, ekskursiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil tahsili.

Oliy maktabda o'qitish metodlari

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi-mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rin egallaydi.

Metod - bu maqsadga erishish, masalalarni xal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. Usul metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir.

O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi.

Metodlar tuzilmasida ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar ajralib turadi.

Ob'ektiv jihatlari: didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyillar, ta'riflardir;

Sub'ektiv jihati – bu pedagog shaxsi, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligiga va konkret sharoitga bog'liqdir.

Eng asoslangan o'qitish metodlari:

1. An'anaviy: amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash, video metodlar.
 2. Maqsadiga ko'ra: bilimlarni egallash; malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; bilimlarni qo'llash; ijodiy faoliyat; mustahkamlash metodlari; bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.
 3. Idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko'ra:
Tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv);
Reproduktiv metod (bilimlar tayyor xolda tavsiya etiladi) ular bo'lishi mumkin:
Muammoli;
Qisman ijodiy (evristik) metod;
Tanqidiy metod.
 4. Didaktik maqsadiga ko'ra: ilk bor bilimlarni o'zlashtirish;
Egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.
 5. O'qitish metodlarning binar (qo'sh) va polinar (ko'p qirrali) tasnifi.
- Mamlakatimizda milliy tibbiyot va farmatsevtika ta'limini modernizatsiya qilish, tibbiyot va farmatsevtika kadrlarini tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta'limi jarayonlariga o'qitishning kredit-modul tizimini joriy etish.

2019/2020 o'quv yilidan boshlab tibbiyot va farmatsevtika kadrlari uchun muammolarga yo'naltirilgan modulli o'quv dasturlari, seminar, konferensiya, vebinar, mahorat darslari, simulyasion treninglar va boshqa o'qitish kurslari negizida har yili malaka oshirishni nazarda tutuvchi kredit-modulli o'qitish tizimiga asoslangan, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini joriy etish:

Kredit-modul tizimini joriy etish orqali magistratura va klinik ordinatura (rezidentura)da egallanayotgan amaliy ko'nikmalarning murakkabligiga bog'liqholda ta'lim muddatlarini optimallashtirish orqali o'qitish jarayonini takomillashtirish.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'limni islox qilish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risida nima bilasiz?
2. Ta'lim mazmuni, shakllantirishning mohiyati va nazariyasi to'g'risida nima bilasiz?
3. Ta'lim mazmunini tanlashning qanday tamoyillari va me'yorlari bilan tanishsiz?
4. MFO' ni tashkil etishning qanday shakl va metodlari, ularga qo'yilgan talablar
5. MFO' ni tashkil etishning asosiy qoidalari, shakllari va metodlari qanday?

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида"ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.

5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.-1997
6 ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ 06.05.2019 й.

Н ПҚ-4310 ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ТАЪЛИМИ ВА ИЛМ-ФАНИ ТИЗИМИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ ЧОРА- ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА
Internet saytlariZiyonet.uz

2-Mavzu: Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifalalari
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси ҳамда 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизимини ривожлантириш концепцияси вазифалари

Tayanch so'z va iboralar: kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kadrlar tayyorlash milliy modeli, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, uzluksiz ta'lim, bakalavriyat, magistratura, o'qitish metodikasi, o'qitish shakllari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1995 yil fevral oyidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqoralar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi" deb ta'kidlab o'tganlar.

Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda bo'lib o'tgan 1X sessiyada muhokama etilib, qabul qilingan, hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya

tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor bo'lgan qonunlar – “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni izchil amalga oshirish jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy modeli shakllantirildi. Uning asosiy tayyorlash tizimini moliya va modiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar qatnashchisi.

Mazkur milliy modelining asosiy elementlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir.

Oliy ta'lim o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi xamda ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichga ega.

Bakalavriyat – ta'lim yo'nalishi buyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb buyicha “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan “magistr” akademik darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Shuningdek fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqli ekanligi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida” gi Qonunning 3- moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan bo'lib,

unga ko‘ra ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e‘lon qilingan.

Ta‘lim soxosidagi davlat siyosatining asosiy tamoyil qo‘yidagilardan iborat:

- Ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xaraktaerda ekanligi;
- Ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;
- Umumiy o‘rta maxsus, kasb-xunar ta‘limning majburiyligi;
- O‘rta maxsus kasb-xunar ta‘limining yo‘nalishi: akademiy litsey yoki kasb-xunar kollejida o‘qishini tanlashning ixtiyoriyligi;
- Ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- Davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim olishning xamma uchun ochiqqligi;
- Ta‘lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilganyondashuv;
- Bilimli bo‘lishni va iste‘dodni rag‘batlantirish;
- Ta‘lim tizimidavlatva jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Respublikamizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxotlar o‘zida kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bunday kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining maqsadi bo‘lajak mutaxassislarning ixtisoslik fanlaridan ta‘lim berish metodikasi, oliy ta‘lim tizimida o‘qitish shakllari xamda o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fani “Pedagogika” fanining tarmog‘i sifatida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi:

- Kasbiy ta‘lim vazifalarini asoslash, uning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- O‘quv material mazmunini asoslash;
- Oliy ta‘lim tizimida ta‘lim jarayonini tashkil etish;
- Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash.

Mazkur fan mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlariga bahishlangan bo‘lib, u magistrant talabalarga tanlangan soha bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga oid chuqur nazariy bilimlar berishga yo‘naltirilgan. SHu bilan birgalikda fanning mazmunida o‘qitish usullariga oid umumiy ma‘lumotlar, ta‘lim jarayonining tashkiliy-pedagogik sharoitlariga ham e‘tibor qaratilgan.

Magistr o‘zining kasbiy faoliyatida ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqarishga oid bilim va ko‘nikmalarini to‘daqonli o‘zlashtirgan bo‘lishi bilan birga ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi lozim.

Magistr ilmiy-pedagogik yo‘nalishda ish olib borishi uchun pedagogika, psixologiya fanlarini va mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini bilishi zarur.

Magistr ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini, o‘qituvchi kasbiga oid pedagogik va kommunikativ qobiliyatlarni, pedagogik texnologiya va pedagogik

mahoratni, ishchi o'quv dasturi va o'quv rejalari tuzishni, fan bo'yicha talabalar bilimini baholashning reyting

Tizimini bilish lozim.

Mutaxassislik fanlari o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirgan talaba:

-o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta'lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma'ruza o'qishni amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni, talabalar mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni, ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'rganish jarayonida muammoli ma'ruzalar o'tkazish, interfaol metodlar, pedagogik strategiyalardan foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmun-mohiyati.
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining komponentlari
3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari
4. Oliy ta'limni amalga oshirish bosqichlari
5. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining asosiy vazifalari
6. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirgan talaba qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?

7. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X.

Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.

2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида"ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.

5. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.-1997
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ 06.05.2019 й.

Н ПҚ-4310 ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ТАЪЛИМИ ВА ИЛМ-ФАНИ
ТИЗИМИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ ЧОРА- ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Internet saytlari Ziyonet.uz

3-Mavzu: Davlat ta'lim standartlari, uning talablari, o'quv rejalari

Reja:

1. Maxsusfanlarini o'qitish qonuniyatlari vatamoyillari
2. Maxsufanlarini o'qitishni o'ziga xos xususiy tomonlari
3. Соҳага халқаро таълим стандартларини жорий этиш,

Tayanch so'z va iboralar: Standart, normativ hujjat, ta'lim ekvivalentligi, uzluksiz ta'lim, o'quv reja, malaka darajasi.

O'zbekiston uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2002 yil 21.02.54 sonli buyrug'i.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 2 bosqichi – kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan hamda dasturning 1 bosqichda to'plagan tajribalarni amalda tadbiiq etilishini jadallashtirishdir.

Me'yoriy hujjatlar takomillashtirish maqsadida Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalar tasdiqlansin.

O'zbekistan Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi "Davlat standartlari, o'quv reja, fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to'g'risida"gi 2002 yil 21.05.154 sonli buyrug'i.

1. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish asoslari Hujjatlar 17 ta

2. Qo'llanish sohasi

2.1. Davlat ta'lim standart (OT DTS)

"Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha magistr tayyorlash ta'lim dasturini o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekistan Respublikasi hududidagi oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

2.2. Kadr tayyorlash vakolatiga eta bo'lganlar.

2.3. OTDTSning asosiy foydalanuvchilari:

- Ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul - professor-o'qituchilar;

- magistratura o'quv- tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- oily ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oily ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

3. Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar.

DV ni ishlab chiqarish jarayonlari;

- DVni ishlab chiqarishni tashkil qilish bosqchilari;

- Me'yoriy hujjatlar;

- DV ni sifatini ta'minlash va sifat nazorat usullari

4 .Mutaxassislikning tavsifi

4.1. 5A320406-Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarni to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat atestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga "magistr" (darajasi) va oliy malumot to'g'risidagi rasmiy xujjat beriladi.

4.2. Ta'lim dasturi-mutaxassislikning ta'lim dasturi nomi

Malaka darajasi- magistr va muddati 2yil

5.Magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlari tavsifi

5.1. Magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari;

-Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish;

-O'Z FA va tarmoq ITIda, "O'zfarm sanoat" DAK, "Dori-darmon"AK, Dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida, DV va TTSNQ" boshqarmasida kompleks masalalarini yechish.

5.2.Magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ekti;

-boshlang'ich tabiiy va sun'iy xom ashyolar. O'simlik xom ashyolari, yordamchi moddalar,jihoz materiallari.

-DVni modifikatsiyalash, gomeopatik va veterinariya amaliyotida qo'llashga mo'ljallangan.

5.3. Magistr kasbiy faoliyatining turlari

- Ilmiy-tadqiqot;

- Tashkiliy - boshqaruv;

- Oliy, malaka oshirish va qayta ta'mirlash, ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);

- Konsalting xizmati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

5.4. Magistral kasbiy faoliyatining vazifalari: Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

1) Mutaxassislikka moyil yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

2) zamonaviy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni va dasturlar paketini qo'llash;

3) IT loyihalari mavzusi bo'yicha model, algoritmlar, metodlar, yechimlar instrumental vositalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;

4) namunaviy uslublar natijalarini qayta ishlash;

5) ilmiy-texnikaviy hisobotlar, xatlar ishlab chiqish;

6) ilmiy sharxlar, referat va bibliografiyalarni tuzish;

7) ilmiy seminarda ishtirok etish;

8) ilmiy-texnikaviy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

-e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

9. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
10. Maktabdan tashqari ta'lim.
11. Maktabgacha ta'lim (6-7 yoshgacha)
12. Umumiy o'rta ta'lim:
Boshlang'ich (1-4 sinflar)
Umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar)
13. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida)
14. Oliy ta'lim
Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan universitet, akademiyalar, institutlar, ikki bosqichda: bakalavriat va magistratura.
15. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik, harbiy o'qituvchi)
16. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
17. Maktabdan tashqari ta'lim. Ijodiyot saroylari, uylari, klublar, markazlar, san'at, musiqa maktablari.
18. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish (Davlat ko'maklashadi)
19. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar - diplom, sertifikat, shahodatnoma, guvohnoma.
- III. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish
20. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish. Stipendiya, yotoqxonada joy bilan ta'minlash
21. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish ish vaqti sisqartirilgan, ish haqi, rag'batlantirish
22. Yetim bolalarni o'qitish
23. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqson bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish
24. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari.
- IV. Ta'lim tizimini boshqarish
25. O'z.R. VMning ta'lim sohasidagi vakolatlari
26. Ta'limni boshqarish bo'yicha davlat organlarining huquqlari.
27. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari.
28. Ta'lim muassasasini boshqarish
29. Ta'lim sohasidagi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.
- V. Yakunlovchi qoidalar
30. Ota-onalari yoki qonuniy vakillarining vazifalari
31. Ta'limni moliyalash
32. Ta'limni rivojlantirish fondlari
33. Halqaro hamkorlik
34. Ta'lim to'g'risidagi sonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasining sonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan.

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh silish omillari.
2. Milliy dasturning maqsadi vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari.

2.1. Dasturning maqsad va vazifalari.

Maqsadi - ta'lim sohasini tub dan isloh silish, uni o'tmishdan solgan mafkuraviy sarashlar va sarqitlardai to'la xalos etish, rivojlangan demokrativ davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Vazifalar:

- raqobat muhitini shakllantirish va ta'lim tizimini yagona o'kuv ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishi ta'minlash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlangan demokrativ huquqiy dav lat surilishi jarayoilariga moslash;
- muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;
- KTT va mazmunini mamlakatning fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta surish;
- ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- muassasalarni attestaqiyadan o'tkazish va akkreditaqiya silish;
- normativ, moddiy texnika vaaxborot bazasini yaratish;
- byudjetdan tashqari mablag'lar, chet el investiqiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2.2. Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari

I bosqich- 1997-2001 yy

II bosqich-2001-2005 yy

III bosqich - 2005 va undan ksyingi yy.

3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli

3.1. Shaxs

3.2. Davlatvajamiyat

3.3. Uzluksizta'lim

3.3.1. Uzluksizta'limnitashkiletishvarivojlantirish prinsiplari

3.3.2. Uzluksizta'limni isloh qilish yo'nalishlari

3.3.3. Uzluksizta'limtizimivaturlari

3.4. Kadrlartayyorlashtizimidafan

3.5. Kadrlartayyorlashtizimidaishlab chiqarish

4. KTT rivojlantirishningasosiy yo'nalishlari.

5. Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doyr tashkiliy chora tadbirlar.

Nazorat savollari:

1. Maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari.

2. Maxsus fanlarni o'qitishni o'ziga xos xususiy tomonlari.
3. O'zbekiston uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari
4. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakulov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида"ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.
5. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.-1997
6. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ 06.05.2019 й.
N ПҚ-4310 ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ТАЪЛИМИ ВА ИЛМ-ФАНИ ТИЗИМИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ ЧОРА- ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Internet saytlari

Ziyonet.uz

4-Mavzu: Ta'lim jarayonini tashkil qilish va uni rejalashtirish

Reja:

1. Ta'lim mazmuni mohiyati.
2. Ta'limni tashkil etish turish va uslublariga ko'yilgan zamonaviy talablar
 - 2.1. Ta'lim turlari
 - 2.2. Ta'lim usullari

Tayanch so'z va iboralar: Ta'lim jarayoni, ta'lim turlari, ta'lim usullari, moddiy (material) nazariya, rasmiy (farmon) nazariya, dedaktik utilitarizm, funksional materializm.

O'zbekistonning oliy ta'limi asosiy vazifasi keng va chuqur fundamental bilimlarga va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni shakllantirishdan iborat:

Uzbekistan Respublikasi Prezidenti I.Karimov davlatining siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biri - ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Respublika oliy ta'lim.

Maqsadi - yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ular zamon talablariga javob beradigan respublikani ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlovchi va yukori ruhiy va ma'naviy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Resspublikada oliy ta'limni zamonaviy rivojlanish gyugonasi - bu davlat islohotlardir. U Milliy dasturda keltirilgan bo'lib, dasturda oliy ta'lim maqsadi, masalalari va prinqlari (tamoyillari) belgilangan.

Oliy ta'lim jarayoni mazmuni bilan ta'riflanadi. Ta'lim mazmuni esa - bu tizimli bilim, aloqa ko'nikmalar majmuasi bo'lib, amaliy tayyorgarlik va bilish sobiliyatini rivojlanish darajasidir.

Ta'lim mazmuni mohiyatining tahliliga har xil yondoshish mumkin: bilimli - taxminiy yondoshishda e'tibor negizida bilim turadi - bu ruhiy ko'p yillar davomida yigilgan boylik natijasi; shaxsiy - tahliliy yondoshish - negizyda shaxe turadi. Bu yondoshishda ta'lim mazmuni erkip tanlanadi.

Ushbu yondoshishni bajarilishida ta'limli, ruhiy ma'naviy, madaniy va hayotiy shaxsni extiyojlari soniqtiriladi.

Demak, shaxsga insonparvar muruvvatli munosabatda bo'lib, uning shaxeiy intilishlari va sobiliyati rivojlanadi.

Shaxsiy - taxminiy yondoshishning maqsadi - bir butun shaxs - odamni rivojlantirish (unda odamni tabiiy, ijtimoiy va madaniy xolatlari hisobga olingan xolda).

Bu yondoshish vakillari: I.YA.Lerner, M.N.Skatkin, V.S.Ledpev, B.M.Bim Bada, A.V.Petrovskiy va b.

Ta'lim mazmunini uz tarixi bor.

Ta'lim mazmuni vaqt - davrga ilmni ishlab chiqarishni rivojlanishiga bog'lits.

Ta'limni rivojlanishiga ijtimoiy omillar ham ta'sir etgan.

18-19 asrlarda - insonparvarlik, odamgarchilik g'oyasi hukmron bo'lgan. Erkin aqliy va jismoniy rivojlanish har xil maktablar bo'lgan (Franqiya, SHveyqariya, AQSH, Germaniya, Avstriyada), ular ta'lim va tarbiyani tabiat bilan bog'lab, bola va kattalar o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni o'rnatishgap.

18-19 aerda ta'lim mazmunining asosiy nazariyalari yozilgai. nazariyasi moddiy (material) va rasmiy (formal) larga bo'lingan.

Moddiy nazariya boshkachasiga didaktik materializm yoki enqiklopedizm deb ataladi. Asosiy maqsad har xil ilmning sohalaridan ko'p-ko'p bilim berish. Tarafdorlari YAn Kamenskiy, a bitta kitobda hamma bilimlarni bermochi bo'lgan va uning fikrdoshi Djon Milton bo'lgan.

Rasmiy (didaktik formalizm) nazariyasi - ta'lim mazmuni - bu ta'lim bitta sohadan bilishni berishga karatilgan.

Tarafdoshlar: Geraklit va Siqeron. I.Kant falsafasi va b.

Rasmiy formalizm tarafdorlari yutugi, ular uz e'tiborini o'quvchilarga e'tibori zexni, tasviri, fikrini oqurish, bilit urganit sobiliyatini rivojlantirishga saratilgan.

Kamchilik tomoni, ushbu nazariyada dasturlarda birinchi o'rinda instrumental (predmet) fanlar (til, matematika) turgan.

Ikkala nazariya ham K.D.Ushinskiy tomonidan tanqidga uchradi.

K.D.Ushinskiy fikricha, o'quvchilarni bilim bilan boyitishi kerak va odam ushbu boylkdan foydalanishga o'rganishi lozim. U didaktik materializm va didaktik formalizm bitta goyaga ega deb aytgan.

19-20 asrlarda AQSHda didaktik utilitarizm konqenqiyasi iaydo bo'ladi.

Didaktik utilitarizm bo'yicha o'quvchilarga maksimal darajada erkinlik berilib, ular o'quv fanlarni o'zlari tanlashadi, natijada majburiy va fakultativ fanlarga ajratiladi. O'kuv-tarbiya jarayon esa o'quvchilarni sub'ektiv talablariga moslashar edi.

Polshada funkqional materializm nazariyasi bo'lgan, unda ham ta'lim talablari, ham o'quvchilar xoxishi bitta bo'lib solgan.

20 asr 50 yillarida operaqion strukturizaqiya nazariyasi dasturli o'qitish asosida paydo bo'lgan sanday o'qitish kerak? savolga javob sidirishgan.

Ta'lim mazmuni qoidalari tamoyillari

Ta'lim tamoyillari:

1. Ta'lim mazmuni jamiyat, fan, madaniyat va shaxsni rivojlabishigamos kelishi

2. Ta'limni mazmuniy va jarayonli tomonlari birlishi

3. Ta'lim mazmuni xar xil pog'onalarda strukturali birligi

4. Ta'lim mazmunini iisonparvarligi

5. Ta'lim mazmuni fuidamentalligi (puxtaligi)

6. Ta'lim mazmunining asosiy komionentlarini shaxsning asosiy madaniyati strukturasiga mosligi

Ta'lim mazmuni komponentlari:

- shaxsning manfaatli tajribasi

- amaliy faoliyat tajribasi

- ijodiyot tajribasi

- shaxsiyat munosabati tajribasi

Xulosa. Mutaxassisning rivojlanishi, uning chuqur puxta bilimini shakllanishda asosiysi - bu ta'lim mazmuni. U pedagogika bilan aniqlanadi. Ta'lim mazmunini nazariyasida material va farmonlar turibdi. Ular 18-19 asrda paydo bo'lgan.

Ta'limni shakllanishining prinsiplari: ta'lim mazmuni jamiyat, fan, madaniyat va shaxsni rivojlanishi talablariga moe bo'lishi; o'kitishni mazmuniy va proqessual birligi, barcha pog'onalarda ta'lim mazmuni strukturali birligi, ta'lim mazmuni insoniarvarliligi, fundamentalligi, uning komponentlari shaxsning ichki madaniyatiga mosligi.

Ta'lim mazmuni komponentlari: shaxsni manfaatli tajribasi, amaliy faoliyati tajribasi, ijodiy tajribasi, munosabatiy tajribasidir.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim mazmuni mohiyati.
2. Ta'lim mazmuni komponentlarini sanab bering.
3. Ta'lim tamoyillari nimalardan iborat.
4. Ta'limni tashkil etib turish va uslublariga qo'yilgan zamonaviy talablar
5. Ta'lim mazmunini o'z tarixi bor, u haqida ma'lumot bering.
6. Ta'lim turlari va usullarini sanab bering.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида"ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.
5. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.-1997

Internet saytlari

Ziyonet.uz

5-Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish metod va vositalari.

Umumiydidaktik shakllari

Reja:

1. Maxsusfanlarni o'qitish metodlari
2. Maxsusfanlarni o'qitishda ishlatiladigan shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviyishi, ishlab chiqarish amaliyotini tashkilotish va o'tkazish metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: Metod vositalari, didaktik shakllari, metodlarni funksiyalari, axborot.

Barcha metodlar bir-biri bilan aloqador.

Metodlarni qo'llashning turli modifikasiyalari mavjud.

Bugungi kunda metodlar 5 guruhga bo'linadi:

1. amaldasinash, tajriba metodi
 - Tajriba o'tkazish (amaliyot)
 - Mashq qilish (mehnat, ishlab chiqarish)
2. Ko'rgazmali namoyish qilish metodi:

- hikoya
5. Bilimni yangi pog'onalariga ko'tarilishi. Ularni keltiring (6 ta)

“Loyixa” uslub yordamida mustaqil savolarni muhokama qilish

Uslubiy ta'minot: adabiyotlar, ma'ruza matni

Ta'lim qonuniyatlari. Didaktikada ijtimoiy - pedagogik qonuniyatlari mavjud, ular:

Oliy ta'lim jamoa ishlab chiqarish bilan belgilanadi

Oliy ta'lim talabnomaning tarbiya va rivojlanish jarayoni

Oliy ta'lim tashqi muhitga bog'liq yoki qaramdir

O'qitish maqsadi, ta'lim mazmuni, uning usullari va turlari bir-biriga mujassamdir;

O'quvchi va o'qituvchining maqsadi mos bo'lishi

O'quv jarayoniga talabani jalb etilish muvaffaqiyatli va tez o'qishni garovidir

Ta'lim turlari:

Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot laboratoriya mashg'uloti, o'quv konferensiyalar, konsultatsiyalar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv amaliyoti kurs va diplom ishlari. Talabanning mustaqil o'qishi.

Ma'ruza - bu ilmiy masalani mantiqiy bir tekisda terilgan, tizimli ketma - ketlikda va aniq bayon etilishi. S.P.Arxaangelskiy belgilaganicha, ma'ruza eng samarali ishonchni, intuitsiyani, erkinlikni, hisii, ongni yuzma-yuz jonli kantaktini turidir, ya'ni o'qituvchini hamma boyligi bilan talabanning ichki dunyosini aloqasi bog'lanishi, ma'ruza ta'limini mo'ljallovchi, informatsion, metodologik va tarbiyalovchi funktsiya soni bajarilishi ta'minlaydi.

Mo'ljallovchi funktsiyasi - bu talabalar e'tiborini o'quv materialidagi eng asosiy joylarga qaratadi, ayniqsa uni kelajakdagi mutaxassislik faoliyatida.

Informatsion funktsiyasi - asosiy ilmiy dalillar xolat va xulosalarni ochib beradi.

Metodologiyasi (uslub) - ilmiy izlanishlarni ochib borishda, tadqiqot usullarini solishtirishda yordam beradi.

Tarbiyalovchi funksiyasi - o'quv materialini baholashda qiziqishni oshirish va isbotlarni tushinishda ishlatiladi. Ma'ruzada asosiy hal bo'ladigan masalalar:

Ilmiy bilish yigindisini ma'lum qilish;

Ilm va tadqiqot metodologiyasi bilan tanishtirish;

O'quv darslarida mehnat turlarini bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatish;

Didaktika bo'yicha ma'ruzalar har xil bo'ladi.

Kirish ma'ruzasi - kursning joyi uni amaliyotda qo'llanilishi kuni mazmunini o'rganish usullari.

Asosiysi - O'qituvchi eng kerakli savollarni aytib o'tadi. Ularning o'tilishi keyin bo'lishi ko'rsatiladi (mavzu bo'limlarda). Tematik ma'ruza - eng tarqalgan turi. Anik muayyan mavzu bo'yicha o'qiladi. Dalillar taxlil, xulosalar keltiriladi.

Yakuniy sharhlovchi ma'ruza - talabalar o'zlashtirgan ma'lumotni sistemaga keltiradigan va ularni bilishini chuqurlashtiruvchi o'quv fanni yaxshi bilib olishda katta ahamiyatli ma'ruza xisoblanadi.

Talabalar o'zlashtirishini tekshirish. "Magistr mavzu bo'yicha 1 test savolini tuzadi.

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Adabiyot: D.Tojiboeva, A.Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. 2009.- B. 13-21

4-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash

Mavzuning maqsadi: o'quv jarayonini tashkil etishda mashg'ulotlar o'rnini tushintirish.

Mavzuning ahamiyati: o'quv jarayonini muhim shakllaridan biri ekanligini o'zlashtirish.

Mustaqil tayyorlash uchun savolar.

- 1.O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari
- 2.Mashg'ulotning funksiyasi
- 3.Mashg'ulotning turi yoki tipi
- 4.Mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi pedagogik texnologiyalardan "Bumerang" uslubida o'tkaziladi.

"Bumerang" uslubida o'tkazish bo'yicha ko'rsatma.

1. Magistratura talabalari 3-4 guruhga bo'linadi.
2. Kichik guruhlarga savollar berilib va ularga tayyorlanish va o'zaro guruh ichida muhokamasi uchun 5-8 daqiqa ajratiladi.
3. Guruh vakillarini almashtirish va yangi savollarni guruh ichida o'zlashtirish uchun yana 5-8 daqiqa beriladi.
4. Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollar muhokamasini o'tkazish va kichik guruhlar bergan javoblarini baholash.

Uslubiy ta'minot : asosiy adabiyotlar, ma'ruza matnlari.

Uslubiy ko'rsatma

O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri mashg'ulotdir. Uning asosiy shakllari: ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, seminar va b.

Maqsadi: talabalarning bilim olish, olingan bilimni puxta o'zlashtirish, darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydigan turli-tuman metodlarni qo'llash.

Mashg'ulot ta'lim – tarbiya berish, hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyasini bajaradi.

Mashg'ulotning turi yoki tipi – bu aralash dars, yangi bilimlarni egallash; bilimni ko'nikmaga aylantirish.

Ishlatiladigan uslublar; tushuntirish, aytib berish, illyustratsiya; FSMU(fikr, sabab, misol, umumlashtirish), muammoli munozara, ko'rgazmali, muammoli ma'ruza, test.

Namunaviy mashg'ulot tuzilishi:

1. Mavzu
2. Maqsad
3. Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar
4. Dars o'tish uchun zarur jixozlar
5. Ko'rgazmali materiallar (qurollar)
6. Tarqatiladigan materiallar
7. Mashg'ulotda muxokama qilinadigan savollr va ularga ajratilgan taxminiy vaqt
8. Mavzuni o'zlashtirishini tekshirish uchun savollar yoki test savollar
9. Bayon etilgan fikrlarni umumlashtirish

Mashg'ulot(amaliy, seminar) vazifalari

- Ma'ruzada bayon qilingan nazariy qonun qoidalarni mustahkamlash;
- Fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- Talabalarni ilmiy tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish.

Mashg'ulot darsi talabalarni bilim olishlari uni puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida aloxida o'rin tutadi.

SHuning uchun mashg'ulotni qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini taminlaydigan metodlarni qo'llab o'tish lozim.

Mashg'ulotni oldiga qo'yilgan bosh maqsadga erishish uchun dars oldiga qo'yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar mashg'ulot darsning bajaradigan funksiyalarda o'z ifodasini kengroq topgan.

Ular:

- 1) Talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) Mustaqil ishlash malakasini o'stirish;
- 3) Mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- 4) Nutqini o'stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o'rgatish;
- 5) Mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini o'rtoqlashishga o'rgatish;
- 6) O'rtoqlari fikrini tanqidiy baholashga o'rgatish;
- 7) Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash;
- 8) Nazariy olgan bilimlarni amaliyot bilan bog'lash.

O'qituvchini, savollar qo'yilib, ularga javoblar aniqlanadi. Talabani gapiga; Fikri to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi;

Fikri to'g'ri aniq;

Talabalarning nuqtaiy nazarini aniqlash;

Savolni nostandart echimini maqtash. O'qituvchi yakunlovchi so'zini har doim aytib turish kerak va unda:

- Muammoning muxokamasidagi umumiy darajasining ta'rifi;
- Ayrim talabalar gapini baxolash va taxlil qilish;

Laboratoriya ishi - unda talabalar masalani mustakil bajaradi. Zaboraer -bu o'zini bajarish laboratoriya ishi - nazariy bilimlarni ishlatish mexanizimi o'rgatiladi.

U talabaning fikrlashini rivojlantirali va unga faol xarakteri imkonini beradi.

Laboratoriya darsida talabalarda tadqiqot o'tkazish ko'nikmalari shakllanadi, ilm va texnikaga ijodiy yondashish rivojlanadi. Laboratoriya ishi maqsadi - talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy yangi qirralarni qidirish va eksperiment o'tkazish metodikasini bilib olishdi.

Laboratoriya mashg'ulotiga asosiy didaktik talablar;

- Laboratoriya ishi rejalashtirish va olib borishni;
- Talabalarni qiziqtirish bo'limini chuqurlashtirishda va amaliyotda;
- Laboratoriya mashg'ulotiniig maqsadini yaqqol shakllantirish;
- Talabaning mustakil natija olishini ta'minlash;
- Talabalarni nazariy tayyorgarligi;
- Laboratoriya mashg'uloti nafaqat bir mavzuni egallovchi balki tarbiyalovchi usuldir.

Laboratoriya yoki amaliy mashg'ulot vazifalari; o'qituv, tarbiyalash va nazariyani amaliyot bilan bog'lash;

"Amaliy mashg'ulot" atamasi pedagogikada (keng manoda) yig'indi tushuncha va unga quyidagi dars turlari: mashq, seminar va uning turli turlari va laboratoriya ishi kiradi.

Amaliy mashg'ulot ma'ruzadan farqi o'quv jarayonining qatnashchilarini munosabati boshqacha. Farqi masalalarda agar ma'ruzada ilmiy materiallar asoslari umumlashtirilgan xolatda berilsa, amaliy darsda olingan bilimlar chuqurlashtirilgan, kengaytirilib aniqlanadi. Amaliy mashg'ulotning eng muxim masalalaridan biri- bu talabaning bilimi tekshiriladi.

Amaliy darsning bir turi - bu seminar va u kuyidagi asosiy masalalarni echadi:

- Ma'ruza bayon etilgan nazariy xolatlarni nuhtalash;
- Ushbu fandan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- Talabaning tadqiqoti va o'rganish qobiliyatini rivojlantirish;
- Nazariy o'quv jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda ishlatilishi.

Seminar darsni 3 xil turi mavjud: proseminar, seminarni o'zi va spenseminar.

Proseminar - mustaqil ishning o'ziga xosligi bo'yicha talabalarni tanishtirish maqsadida olib boriladi. Adabiyot lug'at ustida ishlash, proseminarlar dastlabki ilmiy tadqiqotlarga o'tish oldidan o'tkaziladi. Demak, proseminar - bu seminarga tayyorlov turi. Asosiy etakchi rolda -o'qituvchi turadi va o'qituvchilarga ushbu

mutaxassislik bo'yicha o'quv ishini tushintiradi va yo'naltiradi, chunki ular o'zlari tashabbusni ko'rsata olmaydi.

Seminar va spetsseminarda jiddiy masalalar xal qilinadi. Bittasida - bir mavzu bo'yicha chuqurroq materialni o'rganish bo'lsa, ikkinchisida - ayrim eng asosiy metodologik tomonidan kurs mavzu sini bilishga karatilgan. Spenseminar - ma'ruza to'liq bo'lmagan ma'ruza bo'yicha xatto o'quv dasturidan chetka ham chiqib ketgan bo'lishi mumkin. bilimning mahsus momolari bo'lishi mumkin. seminar darsida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqat bo'ladi. bu esa tarbiyaviy axamiyatga ega chunki, talabalar soni kam bo'ladi (ma'ruzaga saraganda) jonli suhbat bo'lib, fikr almashish va xar xil nuqta nazarida bo'ladi.

O'qituvchining seminarida roli katta, u suhbatni tashkil etuvchi va dirijyoridir.

Talabalar o'zlashtirishini tekshirish: Magistr mavzu bo'yicha 1 vaziyatli masala tuzadi.

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Adabiyotlar: D.Tojiboeva, A.Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. 2009.-B.152-176.

5-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: "Maxsus fanlarning o'quv-uslubiy mashg'ulotlarini ishlab chiqish"

Mavzuni yozishdan maqsad: maxsus fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy mashg'ulotlarini ishlab chiqish bilan tanishish va o'quv jarayonida qo'llash.

Mavzuning ahamiyati: o'quv-uslubiy mashg'ulotlarini shakllantirish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

- 1.Tayanch oliy o'quv yurtlari rejalari va ular asosida fanlar tarkibi va soatini aniqlash
- 2.Texnologik xarta butun o'quv jarayonini tashkil etish rejasi sifatida
- 3.O'quv majmuasi va uning tarkibi, o'quv dasturining tutgan o'rni
- 4.Xozirgi paytdagi o'quv-uslubiy majmua tarkibi

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi pedagogik texnologiyalardan "Bumerang" uslubida o'tkaziladi.

Amaliy darsni jihazlanishi: adabiyotlar va ma'ruza matni.

Uslubiy ko'rsatma

Oliy ta'lim tizimining bosh maqsadi-mexnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. Maqsadga erishish uchun ular qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak? Ana shu masalalarga javob topishni ko'rib chiqamiz.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi-ta'lim soxasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratishdir.

Bu tizim dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, ishning ko'zini biluvchi,vaziyatni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarib, qaror qabul qiluvchi, kelajakni

mustahkam poydevorini quruvchi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kadrlar tayyorlashni eng muhim va ma'suliyatli vazifa sifatida amalga oshirishi lozim.

Bu vazifani bajarishda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish, fanlarni o'qitishda o'quv-uslubiy kompleksi va uning o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llash muhimdir.

Eng avvalo, kimni, qanday kadrlar tayyorlashni aniq tasavvur qilishimiz kerak. Bu maqsad davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topadi.

Standart (ingl. Standard-norma, namuna) mahsulotni sifati, tarkibi jihatidan qat'iy belgilangan parametrlardan tashkil topgan, maxsulot, qoida, ko'rinishdir.

Standart keng ma'noda bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo'lgan ob'ektlarni solishtirish uchun qabul qilingan namuna, etalon, modeldir.

Standartlar texnik normativ xujjat sifatida ishlab chiqilib, qabul qilingan ma'lum mezonlar, qoidalar, talablar kompleksidan iborat. Ular vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlar moddiy shaklda maxsulot etaloni, namuna sifatida bo'lishi yoki turli normativ, qonun-qoida, talablar tarzida bo'lishi mumkin.

Standartlarni qo'llashdan maqsad, maxsulotni bajarilgan ishni sifatini ta'minlash.

Ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishidan maqsad tayyorlanayotgan kadrlarni zamon talabi darajasida bo'lishini ta'minlashdir.

Bu standartlarda ta'lim dargohini bitirib chiqayotgan talabalar qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning qo'lidan nima ish kelishining minimaldarajasi belgilab qo'yiladi.

Xalqaro talablarga javob beruvchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish:

1. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda ta'lim ekvivalentligini, tkrlri ta'lim muassasalarni diplomlarini taqqoslab, mamlakatimiz ishchi va mutaxassislarini xalqaro mexnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishin ta'minlaydi.
2. Ta'lim xizmatlari sifatida aniq (qat'iy) talablarni belgilab qo'yilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.
3. Ta'lim muassasalari ishi samaradorligini nazorat qilish tizimini
4. Iqtisodiyot va biznes talablarini tezda ilg'ash va xisobga olish imkoniyatini yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng (1997 y. 29.08.) uning talablarini amalga oshirish bo'yicha O'zR VM 1998 y 5- yanvarda "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlar"ni ishlab chiqish va joriy etish to'g'risidagi qarori qabul qilindi va shu qaror asosida Davlat ta'lim standarti to'g'risida "gi Nizom ishlab chiqildi.

Nizomning 1.1 bandida: O'zR ning "Ta'lim to'g'risida" qonunining 7 moddasida, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunish va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarning barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Talabalar o'zlashtirishini tekshirish: Magistrlar mavzu bo'yicha 2 ta test savollarini tuzishadi.

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Adabiyotlar: Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. 2009.

6-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: Talabalarning o'quv bilish faoliyatini tashqil etish. Axborot texnologiyalardan foydalanish

Mavzuni yozishdan maksad: talabalarning bilishga intilish faoliyatini faollashtirish axborot texnologiyalardan foydalanishini o'zlashtirish

Mavzuni ahamiyati: talabalarni uqishga qiziqishini va mustaqillik faoliyatini shakllantirishi. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Talabalarning bilishga intilishi faoliyatini faollashtirishdagi omillar
2. Bilish extiyojlarini rivojlantirishdagi boskichlar
3. Bilishga intilish belgilarini keltiring
4. Bilishga intilishning faol turlari
5. Dars jarayonida axborot texnologiyalari

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muxokamasi pedagogik texnologiyalardan FSMU uslubida o'tkaziladi.

Amaliy darsni jihozlanishi: adabiyotlar va ma'ruza matni.

Uslubiy ko'rsatma

Mutaxassisning tayyorlashda ularning faqat bilim olish, ukuv va ko'nikmalarini bilish bilan chegaralanib qolmaydi. Zamonaviy sharoitda o'quv jarayonini sifat tomonidan jiddiy uzgartirish lozim. Jumladai, talabalarning bilishga intilish faoliyatini faollagatirish alohida o'rin olmokda.

Psixolog va pedagog P.P.Blonskiyning asarlarida bu masala yaxshi yoritilgan. Pedagogik psixologiyada u birinchi o'ringa o'quvchilarning fikrlashini qo'yib, ular mantiqiy (muammoli, gipotezali) fikr yuritishga intilish va aqliy xulosalar chiqara olishi kerak. P. P. Blonskiy bilishga intilish faoliyatini dialektika va psixologiyaga bir-biriga bog'liqligi, ayniqsa ularni zehni idroki, qabul qilishi yuzasidan zehning nazariyasini shakllantirishda u odamning fikr qilish va so'zni ichki bog'lamini ochib bergan.

Blonskiy o'qishga qizikishni va mustaqillik faoliyatini stimullash kerak degan.

Ushbu bilimga intilish faoliyatiga barcha olim pedagoglar va psixologlar tadqiqotlari bag'ishlangan. L.P.Aristova, M.A.Danilov, B.P.Ksinov, I.YA.Lerner, G.S.Nog, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov, I.G.Ogorodnikovlarii ishlari.

Bilimga intilish o'quv faoliyatidai kengroq manoni bildiradi. CHunki, bu oddiy o'qitish emas dasturlar asosida odamga nafakat bilim olishi balki u o'z xarakatini

qo'yilgan masalalarni toplash, yunaltirishi mumkin. Bu erda turli xil omillar hisobga olinadi. Ob'ektiv va sub'ektiv shakllarda

Bilimga intilish faoliyatini faollashtirish uchun talabalarda quyidagilarni shakllantirish kerak:

-bilim olishga tayyor bulishi; bilishga tayyorgarlik;

-bilish faoliyatining malaka va ko'nikmalari

-bilim ehtiyojlarini faoliyatiga ehtiyoj.

YU.V.SHarov bilim ehtiyojlarini rivojlantirishda bir necha bosqichlarni ko'rsatgan:

- taxminiy faoliyat

- Ehtiyojni shakllanishi

- O'kishga ehtiyojni shakllanishi

- tanlab bilimga intilishni yunaltirish

- o'z-o'zidan o'qitishga ehtiyojni rivojlantirish

Demak, bilimga intilish faoliyatini faollashtirish-bu faqat bilimni o'zlashtirish emas, balki shaxsning sifati bo'lib mustakillik va faollikni shakllantirishdir.

Alohida qiziqish turadi. Qiziqish -o'qishga, bilim olishga.

Bilimga intilishning belgilari:

-intelektual

-Qidiruv

Bilimga intilishning boskichlari:

-Lyubopytstvo-qiziqish "mo'ljallangan qiziqish"

-Lyuboznatelnost-qiziquvchanlik (bilimga bo'lgan ehtiros)

-Poznavatelnyy-bilimga bulgan kizikish (xakikatni kidirish)

-Teoreticheskiy-nazariy qiziqish (qonuniyatlarni bilishga intilish) Ilimga intilishning faol turlari:

Reproduktiv - tayyor bilimni olishga tayyorgarlik

Applikativ - o'zi faol tanlab bilim olishga tayyorgarlik

Interpretiv - faqat bilimni olish emas, balki tushuntirish, ma'nosini ochib berish (izohlashdaga faollik)

Produktiv-yangilikni (yaratuvchi) ijod qilishga tayyorgarlik

Ahborot texnologiyalari bo'yicha kursatma

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi kompyuter yutuqlarga tayanadi. Ularning rivojlanishi turli ahborotlardan samarali foydalanishga karatilgan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov VM ning 2007y 13-fevraldagi majlisidagi ma'ruzasida takidlab o'tkanidek "bugungi kunda zamonaviy ahborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi, ularni har bir mutaxassislik va sohalar bo'yicha qo'llash imkoniyatlarini izlab, mazkur texnologiyalarni yanada takomillashtirish jarayonida ishtirok etish, eng avvalo, bu boradagi bilimlarni beruvchi targ'ib etuvchi pedagogik kadr va mutaxassislarni taqazo etadi "

Ahborot texnologiyalari (AT)- bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularni texnika va ijtimoiy jarayonlarini boshqarish bo'yicha imkoniyatlarni kengaytiridigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish va texnik vositalardir. Yana shuningdek AT lari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish faoliyati tushuniladi.

AT birinchidan ahborotning sirkulyasiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan bu jarayonlarning tavsiridir.

Zamonaviy AT ukuv jarayonida tatbiq etilishi iqtisodiy samara berishi bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda

qo'llashga imkoniyat yaratib beradi.

Bugungi kunda o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqiyatli bajarish imkoniga ega video metodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda.

U:

talabalarga o'rganayotkan mavzusi, xodisa jarayon faoliyat bo'yicha to'liq ishonchli axborot berish;

°Talabani xoxish talab, ehtiyojlari, kizikishlarini kondirish;

°o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish

°o'qituvchining, talabaning bilimini, kunikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish.

°talabalarni o'zlashtirish bo'yicha ob'ektiv hisobot to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Dars jarayonida AT dan foydalanishda asosiy o'rinda multimedia turadi.

Zamonaviy multimedia (MM)-shaxsiy kompyuter to'la "qurollangan" xolda displey televizor bilan birlashtirilgan stereofonik Hi-Fi uy kompleksini eslatadi.

MM informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika, animatsiya, jadvallari asosida uquv materiallarini talabalarga etkazib berishning mujassamlashgan ko'rinishidir.

MM-rivojlanayotgan zamonaviy ahborot texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilari: Axborot hilma- hil turlari: an'anaviy matn jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagramma va b.

Original turlar: nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va bonqalar.

MM vositalari yordamida ishlashning quyidagi afzalliklari bor:

-berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq uzlashtirishi imkoni yaratiladi;

-Ta'lim olishning yangi soxalari bilan yaqindan aloqa yanada ortadi;

-Ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoni yaratiladi;

-ma'lumotlarni vizuallashtirish imkonini yaratadi

-olingan bilimlar nisbatan kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash mumkin buladi.

Lekin bizda fanni o'rganadigan, qo'llangan chora tadbirlarning natijasini qanday bilish mumkinligini taxmin qilish imkonini beradigan uyinlar dasturlarning yo'qligi imkoniyatlarni cheklaydi. Talabalarning faolligi ularning mustaqilligi bilan tikiz bog'langan. Ular bir birini to'ldiradi. Chunki mustaqil harakatlarning o'zidayoq shaxsning faolligi namoyon bo'ladi.

Bilish mustaqilligining belgilari:

1. mustaqil fikrlay olish va unga intilish;
2. yangi vaziyatlarda mo'ljalni o'z bilish, yangi vazifalarni echishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati
3. o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishini istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish.
4. Boshqa ishlarni baxolashda takidiy yondashuv
5. O'z xukuklarning erkinligi

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda bilish faoliyatining quyidagi tiplari farqlanadi:

-perseptiv

i

-reproduktiv

-produktiv

Perseptiv bilish faoliyati-unda predmet, voqea, hodisa va ular haqidagi ma'lumotlar belgilari va mazmuni og'zaki va yozma nutq vositasida aks ettirilgan.

U sezgidan boshlanadi va tassavurlarni ifodalash bilan yakunlanadi.

Reproduktiv bilish faoliyati- bilimlarni amaliy va ijodiy faoliyatida pirovard natijasida qayta ishlab chiqish bilan bog'langandir.

Produktiv bilish faoliyati- turli toifadagi ijodiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Bir turi-M. Evristik faoliyatidir, u mustaqil ishlash bilan amalga oshiriladi.

Talabalar o'zlashtirishni tekshirishi magistrLAR mavzu bo'yicha 1ta test savolini tuzishadi

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида”ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.
5. О‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Т.-1997

Internet saytlari

Ziyonet.uz

7-Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Talabalarni diqqatini jalb qilish va mashg‘ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari. Innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali qurollar
2. Tarqatma materiallar va ularning tutgan o‘rni
3. Dars o‘tish metodlari, unga yondashish
4. Texnik vositalardan foydalanish
5. Multimediya nima va nima sababdan undan hozir keng foydalaniladi?
6. Invaion texnologiyalardan foydalanish
7. Doskadan foydalanishni asosiy afzalligi va kamchiliklari nimada?

Savollar muxokamasi pedagogik texnologiyalardan “Aqliy xujum”uslubida o‘tkaziladi.


Darsni jixozlanishi: maruza matni, adabiyotlar, uslubiy ko‘rsatma

Ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanish


Maxsus fanlarni o‘qitishda dars o‘tish metodlarigina emas, dars jarayonida foydalaniladigan namoyish etilishi va tarqatma materialardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bilamizki, o‘qish, o‘rgaiish, idrok qilish, haslan qayta jonlantirish bilan dars o‘tish shakllari va vositalari chambarchas bog‘liq. Inson o‘zi ko‘rib, tasavvur qilgan narsani to‘liq o‘zlashtiradi.




2) chiziqli




3) gistogramma



4) grafik



5) nuqtali diagramma



Ulardan kerakligi tanlanadi. TM tayyorlash:

TM ko'p berilmaydi

Sarlavxalari bosh xarf bilan yoziladi, 1 matnga 2-3 TM Matn shrifta 12 kichik bo'lmasligi kerak 80 be lgi 1 betda

Matn tushunarli qisqa va oddiy bo'lishi kerak

Varaq dizayni o'ziga tortish kerak

TM da bo'lishi kerak:

mavzuning asosiy mazmuni

axborotni mustaqil muhokama qilish

mustaqil fikrlashga o'rgatish

darsga faol jalb qilish

olgan bilimlarini nazorat qilish va sinash

Texnik vositalardan foydalanish

Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda dars o'tishda qanday ta'lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Texnik vositalarni qo'llab dars

o‘tish talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga, berilayotgan axborotlarni chuqur o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Tarqatma materiallar va ularning tutgan o‘rni

O‘tilayotgan darsda talabalarga axborot etkazish ularni darsni puxta o‘zlashtirishlari va faol qatnashishlarini ta‘minlashda tarqatma materiallarning ahamiyati katta.

TM-bevosita talabaning qo‘lida bo‘lib, uzokdan ko‘rsatiladigan ko‘rgazmali qurollarga xos kamchiliklardan xoli.

TM - o‘quvchilar uchun o‘rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan (1-2 varaq) yozma o‘quv material hisoblanadi.

TM maqsadi, mazmuni jihatidan:

A) axborot beruvchi B) topshiriq beruvchi

D) bilimni nazorat qiluvchi guruxlarga ajratiladi.

Ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish fikrni bayon qilishda asosan 5 tipdagi diogrammalar ishlatiladi

Maxsus fanlarini o‘qitishda texnik vositalardan foydalanish aloxida urin tutadi.

Texnik vositalari universal va maxsus texnik vositalarga bo‘linadi.

Universal vositalar:

doska, diaskop, kodoskop, proektor, magnitofon, videomagnitofon, kompyuter, televizorlar kiradi.

Maxsus vositalar - ma‘lum bir masalani, mavzuii yoritishda maket, videofilm kaseta disk, disket kabilar kirish mumkin.

Dars o‘tishda doska ko‘p qo‘llaniladigan va eng kam chiqim talab qiladigan vosita.

Doskadan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

iotanish so‘z, iboralar yozish

chizma, diagramma sxemalar chizish

raem yordamida illyustratsiya kilish

misollar echish

formulalar yozish va boshqalar

Doskani afzallik tomonlari: ishlatilishi oson, tayyorligio‘zgartirishlar kiritish oson

darsii o‘tishda moe xolda ishlatilishi qo‘shimcha misollarni moslashtirish murakkab nisbatlarni ifodalash formula chizmalarni yozib ko‘rsatish yaxshi yodda qolishi

doskadan ko‘chirilgan narsalar darega yaxish tayyorlanishga yordamberish

Axborot texnologiyalardan foydalanish

Respublika Prezidenta I. Karimov VMning 2007 yil 13.02 dagi majlisida ma‘ruzasida etilgandek: "Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ularni har bir mutaxassislik va soxalar bo‘yicha

qo'llash imkoniyatlarini izlash, mazkur texnologiyalarni yanada takomillashtirish jarayonida ishtirok etish, eng' avvalo, bu boradagi bilimlarini beruvchi, tarkib etuvchi psdagogik kadr mutaxassislarni taqozo etadi".

AT - bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarni kesh aytiradigan ma'lumotlarni tashkil etiga, saqlash, ishlab chiqarish, tiklaga, uzatiga usullari va texnik vositalaridir.

AT- kompleks didaktik texnologiya xam.

U:

- talabalarga o'rganayotgan mavzusi bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish
- o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish talabani xoxish, talab, extiyojlarini, qiziqishlarini qondirish o'qituvchining
- talabining bilimini ko'nikmalarini sinash bilan bogliq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish
- talabani o'zlashtirish bo'yicha ob'ektiv xisobot go'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

ATda asosiy o'rinda multmediya turadi.

Axborotni xilma xil turlari bor:

an'anaviy, matn jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagrammalar va boshkalar.

Original turlar: nutq, musiqa, videofilmdan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshkalar. Ular qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi iaytda multmediya va o'quv, ilmiy-xujjatli filmlarni kompyuter va boshka texnik qurilmalar yordamida pamoish qilish real hayotda yaqinlashtirilgan o'yinlar orqali darsni tashkil etish tobora ommalashib bormoqda.

POWER POINT DASTURI dasturi multmediya taysrlashda juda katta imkoniyatlarga ega.

Innovatsion texnologiyadan foydalanish.

Iniavotsiop pedagogik 60 yillarda G'arbiy Evropa va AQSHda paydo bo'lgan va pedagogikaning glabal muommosidir.

Innavatsiya ini so'zi bo'lib Innovation - yangilik kiritish ma'nosini bildiradi.

Predogogik innovatsiyada - asos (negizi) "yapgi" tushupchada yangilik har xil bo'ladi: shaxsi, shartli, mahalli va sub'ektiv.

SHahsiy yangilik - mahsulotni bitta elementini yangilash.

Mahalliy yaigilik - kankret ob'ektda yangilik ishlatish .

Sub'ektiv - ushbu ob'ekt uchun ob'ekt yapgi

SHartli - ma'lum bo'lgan elementlardan murakkab o'zgarishlarga aylantirish.

| | | |
|-----------------|-----------|--------------------|
| YAngilik | va | Innavatsiya |
| YAngi usul, | | Jarayon , aniq |
| Metodika | | Etapma- etap |
| Tezshnologiya | | Rivojlanadi |

Pedogogik innavatsiyada R.N.YUusufbekov 3 ta blokni ajratib ko'rsatadi:

1. Blok - pedogogikada yangi narsa yaratish
2. Blok - yangi narsani qabul qilishi o'zlashtirishi va baxolashi.
3. Blok - yangi ishlatililishi va qo'llanilishi.

M.M.ИОТОВИИHK quyidagi innavatsion jarayoni strukturasi ajratib chiqargan:

- Faollik strukturasi; lotiv - sel - zadachi - soderjeniya - forma - metodi - rezultadi - xammasining igindisi;
- Sub'ektiv struktura - barcha sub'sktlar rivozlanishi;
- Belgili struktura - xalqaro, regioial, tuman, shahar (pag'onali) yangilik pag'onasida.
- Mazmunliiy struktura - tug'ilishi ishlab chiqish va o'zlashtirish.
- Xayotiy - yangilikni paydo bo'lishi - tez o'sishi - etilishi -o'zlashotirishi - defuziya - toyitirish - blutinizatsiyalash - krizis -pradiatsiya - moderinizatsiyalash.
- Boshqarish stukturasi - 4 ta turi: rejalashtirish - tashkil etish -boshqarish - nazoratlash.
- Tashkil etuvchi struktura - diyagnostikali, nragnozli tashkil etuvchi, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiiq etuvchi,

Innavatsion jarayonlarning o'tkazish qonuniyatlari: nedagogik adabiyotlarda 4 ta asosiysi keltirilgan.

^ Pedagogik innavatsion muxitni destabillanishning orqaga qaytmas qonuni;

^ Oxiriga ettirilgan qonun;

^ Steriotikizatsiyalash qonuni;

^ Qaytarildadigan sikl boyicha qonun.

Innavatsiyaga yondashishi:

1. Kultrologik "odam bilishi" rivojlanishi;
2. SHaxsiy faoliyatini (o'qitishnish yangi texnologiyalari)
3. Polisub'ektiv (diyalogli) yondashish - mutaxassislik tayyorlovga
4. Individual ijodiy (o'qituvchi va talaba munosabati) yakka xolda

Innavatsion faoliyatda sub'ekt - bu o'qituvchi, uni intellekti. Madaniyati,ma'naviyati birinchi o'rinda turadi.

Asosiy yo'nalishi - fan, ta'lim va ishlab chiqarishning ipteqratsiyasi.

O'qituvchining innavatsion faoliyati stukturasi - bu uning ijodiyfaoliyatidir.

Mutaxassislikni cho'qqisini belgilovchi olimlar:

- Tagida borligi (zadadki)
- Iqtidorligi
- Qobilyati
- Talanta
- Oilaviy tarbiya gaaroiti
- O'quv muassasalari
- O'zining erishganligi.

Mutaxassislik va ijodiyliklarning kategoriyalari:

1. Ijodiy individulligi
2. O'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni.
3. Kreativ tajriba (bor yo'g'ini berish natijasi) Ijodiy individual o'qituvchi bo'lish uchun

Intelektual ijobiy initsivasi (intilishi bo'lishi) Bo'limi chuqir va keng bo'lgan Har-xil qarama - qarishlikni sezishi
Doimiy infarmatsion ochlik, yangilikga intilish, o'rganish muommalarda boshqacharoqni ko'rish.

O'qituvchshshng innoeatsion faoliyatini asosiy ta'riflovchi pars – bu kreativlik.

Kreativlik - yakka odamni yangi holatlar, yangi ko'nikmalarni yaratish qobiliyati, ular bo'ladi.

-fikir tezligi

-fikri tez o'zgaruvchanligi

-o'ziga xosligi – original

-qizikuvchan

-gipotezalarni ishlab chiqishga kobiliyati

-fantaziyaligi

Kreativ bo'lish - bu odamni ijodkorlik bo'lishi, xuddi ayrim odamlarda aloxida o'ziga **xos** xislatlari bo'lgandek. O'qituvchining intellektual faolligida 3 ta pogona bor:

1) passiv

2) evristik solishtirib turadi

3) kreativ faol

O'qituvchining innovatsion faoliyati strukturasi kerakli komponent -refleksiya.

O'zining xarakati va fikriga chetdan qarash. U ham ikki xil bo'ladi:

1) analiz qilish

2) ma'nosini tushunish

SHundai kelib chiqib olimlar quyidagi rsflektiv jarayonlarini ko'rib chiqishgan:

1) o'z-o'zini tushunish va boshqalarni

2) o'z-o'zini baholash va boshqalarni ham

3) o'z-o'zini to'g'rilash va boshqalarni ham

Refleksiya - lotin so'zi Reflexio orqaga qaraga refdeksiya ikki xil bo'ladi:

Retrospektiv - faoliyatni tarixini tiklanishi

Prospektiv - faoliyatdagi kuyinish dinamikasi.

O'kituvchining innovatsion faoliyati shakllanishining sharoitlari.

Ishyuvatsiyalik - o'qituvchining psixologik ko'inishi.

Innovatsiyalik - ochiq, boshqa fikrlarni qabul qilishga tayyor.

SHaroitlari: konstruktiv muloqot, karama-qarshi argumentatsiyani qabul qilishi, ratsional momentda bilishga tayyor.

Dars o'tish metodlari, unga yondoshish

Didaktika va metodikaning maqsadi: Ta'lim berish, o'qitish, o'rganishni amalga oshirishdir.

Didkatika nimani? va iima uchun? o'qitish kerak degan savollar bilan shugullansa, **METODIKA** esa u bilan uzviy bog'liq holda qay tarzda, qanday va nimalar yordamida o'qitish? lozim masalalari bilan shugullanadi. Metod tushuichasi yunoncha noftodos - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot so'zidan kelib

chiqqan bo‘lib - tadqiqot yo‘li, haqiqatda intilish, bilish harakat qilish yo‘llari, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma’nosini anglatadi.

Metod serqirra bo‘lib, juda ko‘p komponentlarini jamlaydi. Uning qirralariga: ta’lim tarbiyaning maqsadi, o‘qituvchi tanlagan maqsadga etish usullari o‘qituvchi bilan talabalarning hamkorlik qilish yo‘llari, ta’lim maqsadini aniq o‘kuv materialida ifodalash, o‘qituvchining mahorati, talabalar faolligi, o‘qitish vositalari va usullari tizimi va b. Metodlar 5 guruxga bo‘linadi:

1. Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o‘tkazish, amaliyot o‘tkazish
- mashq qilish, mehnat, ishlab chiqarish jarayonida qatnashish eksperiment o‘tkazish

2. Ko‘rgazmali namoyish qshshsh metodi:

- rasm, suratlardan foydalanish
- namoish qilish
- illyustratsiya qilish
- talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o‘tkazish

3. Ogzaki so‘z orqali ifodalanadigan metod

- tushuntirish
- xikoya qilish
- o‘zaro fikr almashish
- suhbat o‘tkazish
- yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma berish
- ma’ruza
- munozara, baxs va b.

4. Kitob bilan ishlash

- o‘qish, o‘rganish varaqlab chiqish
- sitota keltirish, bayon yozish
- referat yozish, reja tuzish, konspekt qilish

5. Video metod:

- kompiuterda mashq, test echish
- nazorat o‘tkazish
- internetda ishlash
- elektron variantlar ishlash
- axborot texnologiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan dasturlar

Idrok etish, bilim olish, o‘rganish faoliyati xarakteriga ko‘ra metodlar 5guruxga bo‘linadi:

A) tushuntirish-illyustrativ

- tushuntirish
- illdyustrativ
- axborot
- retseptiv

B) Reiroduktiv metod

- tayyor bilim
- fakat bayon qilish
- talabalar tushunib o‘zlashtiradilar

- mustaqil axborotni qaytarish yo‘li bilan ta’minlanadi.

D) Muammoli bayon kilish metodi

E) Qisman ijodiy metodlar

G) Tadqiqiy metodlar

Talabalar o‘zlashtirishni tekshirishi magistrilar mavzu bo‘yicha 2ta masala test savollari va 1ta vaziyatli masala tuzishadi

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov, yangilanish va barqaror taraqqiet yo‘ldan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratigp asosiy vazifamizdir. Xalq so‘zi, 2007 y. 13 fevral

2. D.Tojiboeva, A.Yo‘ldoshev. maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T. 2009- B. 325-330, 394-407; 408-419.

8 - AMALIY MASHGULOT

Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitishda mashg‘ulotlarning rejasini tuzish, mashgulot ishlanmalarini tayyorlash

Mavzuni yozishdan maqsad: MFO‘M fanidan mashgulotlargshng rejasini tuzish va ishlanmalarni tayyorlashni o‘zlashtirish.

Mavzuning ahamiyati: MFUM fanini o‘qitishda mashg‘ulotlarning tutgan o‘rnini o‘rgatish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Maxsus fanlarni o‘qitishda turli metodlarni qo‘llash zaruriyatining asosiy sabablari iimada?

2. Axborot qanday qabul qilinsa, u ni eslab qolish darajasi eng yukrri bo‘ladi?

3. O‘quv jarayonini tashkil qilish

4. Interaktiv metodlarni qo‘llash talab darajasidami?

5. Ln’anaviy dars o‘tish metodi bilan interaktiv metodlar qaysi jihatdan farqlanadi?

6. Dars o‘tishni asosiy metodlarini sanab bering. Ularni tanlash mezonlari.

Mustakil tayyorlash uchun savollar muhokamasi zamonaviy nedagogik texnologiyalarning "Loyiha" uslubida olib boriladi.

Bajarish uchun amaliy topshiriqlar

1. Keltirilgan tarqatma materiallar, adabiyotlar, internet ma’lumotlardan foydalanib misollar keltirish

2. Mashg‘ulotlarning rejasini tuzish va ishlanmalarni tayyorlash bo‘yicha daftarda yoritish

3. Mavzu o‘zlashtirishning nazorati - test savollari va vaziyatli masalalarni echish

Uslubiy ta'minot va mashg'ulot jihozlanishi: ma'ruza matni, adabiyotlar, tarqatma materiallar.

Uslubiy ko'rsatma

Ta'lim sifatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib, talabalarni o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma va muammoli ma'ruza matnlari bilan tula ta'minlashi kerak.

Muammoli ma'ruza matnlarini tayyorlashda mavzularning Milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orilganligiga alohida e'tibor qaratilsin hamda fan, texnika va texnologiya sohalarida dunyoda tan olingan yangiliklar va yo'nalish bo'yicha xorijiy davlatlarda nashr etilgan adabiyotlarning mazmun va mohiyatlarini aks ettirish kerak va elektron versiyasi bo'lishi zarur.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda talabalar faolligini oshirish maqsadida quyidagi uslublardan keng foydalanish kerak:

- o'quv kurslarini bevosita xayot talablariga moslashtirish va ularni vaziyatli masala va topshiriqlar bilan boyitish, uslubiy tavsiya va ko'rsatmalar tayyorlash;

- dars mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv, tanqidiy fikrlash metodlaridan keng foydalanish;

- o'tiladigan mavzular bo'yicha tarqatma materiallarni talabalarga stkazish va talabalarga mavzu bo'yicha kamida 5 tadan savol tayyorlab kelish vazifasini berish kerak.

Dars o'tishdan asosiy maqsad tayyor bilimni o'zlashtirish emas, eig asosiysi, talabalarning intellektual qobiliyatlarini

- o'tiladigan mavzular bo'yicha tarqatma materiallarni talabalarga stkazish va talabalarga mavzu bo'yicha kamida 5 tadan savol tayyorlab kelish vazifasini berish kerak.

Dars o'tishdan asosiy maqsad tayyor bilimni o'zlashtirish emas, eig asosiysi, talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Bu esa dars o'tish metodlarini tanlashga bog'liq.

1-nchidan, talabalarning qobiliyati har xil.

2-nchidan dars o'tish metodlari talabalarni fikrlanish doirasini shakllantirishga yordam beradi.

SHuning uchun turli mstodlar qo'llash kerak.

Tahliliy fikrlash - mustaqil fikrlashdir.

Bu individual bo'ladi.

Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir. Bilim berish uslubiga ta'sir etuvchi parametrlarga:

A) talabani individual xususiyati;

B) axborotni qayta tiklash qobiliyati;

B) talabani bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish, xamkorlik qilish xizmatlarini kiritishadi.

1. a) punkt bo'yicha psixologlar odamlarni 2 guruxga bo'lishadi: introvert va ekstravert.

Introvert - ma'ruza eshitish, kitob o'qish, konspekt yozish, nazorat ishi, referat, doklad yozishni yoqtirishadi.

Ekstravert - kichik guruxlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar o'tkazishda qatnashishni yoqtirishadi.

2. b) ham turlicha. Ular o'kitishning aktiv uslublari, modellashtirilgan o'kinlarda rol o'yash orqali axborotni yaxshi o'zlashtiradi.

3. Talabalar ko'i narsani bir-biridan o'rganishadi. Aniq faktlar, rasmlar, diagrammalar o'rganish, munozara qilish va boshqalar.

Axborotni eslab qolish

| | | |
|---|--|-----|
| 1 | Ma'ruza, doklad eshitganini | 5% |
| 2 | Ukish | 10% |
| 3 | Video, raem, ko'rgazmalar | 20% |
| 4 | Tajribani namoyish qilish | 30% |
| 5 | Munozara birga muhokama | 40% |
| 6 | Mashq, o'qigan, yozgan, gapirgan | 50% |
| 7 | Ish bilarmon o'yini, loyixa usuli, mustaqil o'qilganlari, muhokama, himoya va yozganlari | 75% |
| 8 | Boshqalarni o'qitish va o'qitgan narsalar | 90% |

Interaktiv metodlarni qo'llash va o'quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar.

SHartli ravishda an'anaviy dars o'tish va interaktiv metodlarga ajratish mumkin.

An'anaviy dars o'tishda darsning asosiy maqsadi tushuntiriladi. O'qituvchi talabalarni mavzuni qay darajada o'zlashtirganini nazorat qilib, fikrlariga ko'ra aniqlanadi.

Iteraktiv usuli (metodikasi)

O'zaro xamkorlik ko'p bo'ladi va o'qishga va uqishga o'rgatadi. Talabalarning o'z fikrini ifodalashga imkoniyat beradi. Ta'limning interaktiv metodlari nedagoglarda:

- darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi

Dars o'tish metodlari

1. To'g'ridan-to'g'ri bayon qilish usuli
2. Guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo'linib ishlash
3. Intervyu - savol-javob o'tkaziladi
4. Darsni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish
5. Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar
6. Referat - mavzu bo'yicha og'zaki axborot berish, kitob, risolani mazmunini qisqacha bayon qilish
7. Doklad yoki qisqacha doklad
8. Masala yoki mashq echish
9. Tadqiqot metodi
10. Aqliy shturm
11. Konkurs (tanlov)lar o'tkazish

O'zlashtirishni tekshirish

. Talabalar mavzu bo'yicha 1 test savoli va 1 ta vaziyatli masala tuzadi.

Tarqatma material: kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1997 yil 29-avgust.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho'lpon NMIU, 2012. 208 b.

2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo'ldoshev A, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi." T-2009.-235b.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида"ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.

5. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T.-1997

Internet saytlari

Ziyonet.uz

9-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda ma'ruza matnini tayyorlash

Mavzuning maqsadi: fanlar bo'yicha tuzilgan namunaviy va ishchi dastur asosida ma'ruza matnini tayyorlashni o'zlashtirish

Mavzuning ahamiyati. Uquv jarayonning asosiy bo'g'ini, shakli ma'ruza deb o'zlashtirish.

Mustakil tayyorlash uchun savollar

1. Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni
2. Ma'ruza qo'yiladigan asosiy talablar
3. Ma'ruzada real faktlar, ma'lumotlarning o'rni
4. Ma'ruzaning samarasini oshiruvchi ko'rgazmali qurollar
5. Ma'ruzada materiallari bayon qilinish usullari
6. Ma'ruza matnini tayyorlash

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi pedagogik texnologiyalardan "Bumerang" uslubida olib boriladi. "Bumerang" uslubi bo'yicha ko'rsatma:

1. Talabalar 2-3 kichik guruxga bo'linadi.
2. Kichik guruxlarga savollar bo'lib beriladi va ularga tayyorlanish va o'zaro gurux ichida muhokamasi uchun 5-8 daqiqa ajratiladi.
3. Gurux vakillarini almashtirish va yangi savollarni gurux ichida o'zlashtirish 5-8 daqiqa
4. Mustaqil tayyorlash uchun berilgan savollarni muhokamasini o'tkazish va kichik guruxlar bergan javoblarni baholash.

Amaliy ish

Bajarish uchun topshiriqlar

1. Asosiy tayanch tushunchalarni daftarda keltirish.
2. Takrorlash va munozara uchun quyidagi savollarga javob berish:
 - 1) ma'ruza nima?
 - 2) ma'ruza qanday talablarga javob berishi kerak?
 - 3) ma'ruzalar turlari
 - 4) ma'ruza matni, uning tuzish qoidalari
 - 5) ma'ruza o'qishdagi ko'rgazmali qurollarga nimalar kiradi? Uslubiy ta'minot va mashg'ulotni jihozlanishi: mavzugataallukli asosiy adabiyotlar, tarqatma material, jadval va rasmlar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, dars o'tishning asosiy shakllaridan biridir. Ma'ruzada bilimni so'z bilan ifodalash, ogzaki bayon qilish ko'zda tutilgan. Ma'ruza hajmi, kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi.

Ma'ruza (arabcha) leksiya - lot lectio o'qish degan, o'quv materiali, masala, mavzular mantiqiy izchil, ma'lum bir tizimga solingan bayonidir.

Ma'ruzaga 2 nuqtai nazardan yondoshish mumkin:

- 1) o'quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida,
- 2) bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki bayon so'z bilan ifodalanadigan metodi sifatida

Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yoritiladi.

Ma'ruza qanday fandan o'qilishdan qat'iy nazar, ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy goyalarini talabalar ongiga etkazishi va olgan bilimni ishonchga aylaitirish kerak.

Ma'ruzany o'qish uchun, eng avval unga tayyorlanishdan boshlanadi. Buning uchun 1-chi navbatda, ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash hamda ular bilan tanishish kerak.

2-chidan fan bo'yicha ishlab chiqilgan dasturga ko'ra, ma'ruza rejasi va reja bo'yicha matn tayyorlanishi hamda darsni o'tkazishda qo'llaniladigan metodlarni tanlab chiqish, texnologik tizim sifatida tarkibi, ketma-ketligini aniqlash lozim.

Ma'ruzada darsni bosqichga bo'lish mumkin:

1. Kirish
2. Asosiy bosqich
3. YAkuniy bosqich

Ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar: ikki guruxga bo'lib ko'riladi: A va V.

A) ma'ruza tayyorlash shakliga, matniga qo'yiladigan talablar.

B) ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar.

Ma'ruza matniga:

- ma'ruzaning detallashtirilgan rejasi (ya'ni texnologik xaritasini tuzish) bayon uchun ko'zda tutilgan masalalar qisqacha xulosalar bilai yakunlanish kerak

- ma'ruza matni kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'lishi

- ma'ruzaning mazmuni ochib berilishi (Tojiboeva D, kitobiga 107-betga qaralsin).

Ma'ruza o'qish va matnini tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan barcha an'anaviy va zamonaviy usullar, yo'llar, texnik vosita, multimedia vositalari va ko'rgazmali qurollar bo'lishi lozim.

Talabalar o'zlashtirishini nazorati.

Ma'ruzaning yakuniy qismi:

- mavzu yuzasidan xulosalar;
- ma'ruzadagi asosiy tayanch tushunchalar;
- o'zlashtirishni nazorat qilish imkonini beruvchi savollar turkumi keltiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati ma'ruza mazmunini aks ettirishilozim.

O'zlashtirishni tekshirish

Magistrlar mavzu bo'yicha 1 test savolini tuzishadi.

Adabiyotlar: Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi T.2009.

10-amaliy mashgulot

Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda ochiq mashgulotlarni o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish

Mavzuning maqsadi: Oliy ta'lim muassasalarida ochiq mashgulotlarni o'tkazish tartibini bilish.

Mavzuning ahamiyati: Ochiq mashgulotlarni tashkil etish va o'tkazish kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi sifatida.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Ochiq mashgulotlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi (Nizomi) qaysi qonunlarga muvofik ishlab chiqilgan?

2. Ochiq mashgulot (leksiya)ni maqsadi

3. Ochiq mashg'ulotpi o'tkazishda qanday vazifalar kiradi?

4. Ochiq leksiyalarni tashkil etish tartibi

5. Ochiq leksiyaning muhokamasini uyushtirish hujjatlarini rasmiylashtirish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi "Aqliy hujum" uslubida olib boriladi.

Mashgulotning ta'minoti: adabiyotlar, ma'ruza matni, tarqatma materiallar va internet ma'lumotlari.

Uslubiy ko'rsatma

Oliy ta'lim muassasalarida ochiq mashgulotlarni muntazam va yuqori darajada o'tkazish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichida dolzarb masala hisoblanadi.

Fan va ishlab chiqarishdagi eng soʻnggi yutuq va yangiliklar asosida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardap samarali foydalangan holda leksiylarni tayyorlash va oʻtkazish, oliy taʼlim muassasalarida yosh pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish, taʼlim sifatini koʻtarish maqsadida ochiq mashgʻulotlar oʻtkaziladi.

Oliy taʼlim muassasalarida ochiq leksiylarni tashkil etish va utkazish tartibi toʻgrisidagi Nizom (2004 yil 26.03.79-sonli buyruq) OʻzR "Taʼlim toʻgʻrisida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgrisida"gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va oʻtkaziga tartibi belgilangan.

Ochiq leksiylarni oʻtkazishdan maqsad:

Professor-oʻqituvchilarni tegishli fan, texnika va texnologiyalar sohalari boʻyicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklar bilan xabardor boʻlishlariga erishish va zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda leksiylarni tayyorlash, oʻtkazish va taʼlim sifatini oshirish, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini taʼminlash ochiq leksiylarni oʻtkazish vazifalari:

- talabalarga fandagi soʻnggi yutuq va yangiliklarni etkazish;
- taʼlim sifatini boshqarishda fan, ishlab chiqarish va jamoatchilik ishtirokini taʼminlash;
- ilmiy-uslubiy jihatdan etuk leksiylarni targʻibot etish;
- yosh va boʻlajak pedagog kadrlarning kasb mahoratini oshirish;
- oʻqituvchilarni oʻquv jarayoniga masʼuliyatini oshirish.

Ochiq leksiylarni tashkil etish tartibi:

1. oʻquv reja boʻyicha oʻtkaziladi.
2. kafedra mudiriga maʼlum qilinadi (kun, joy, vaqt)
3. kafedra mudiri tashki ekspert, oʻquv ishlari prorektorga topshiradi
4. tasdiqlanadi
5. ochiq leksiya matni (tezisi) tarqalgan boʻlishi shart
6. ochiq leksiya 2 soatga moʻljallanadi. Savoya va javoblar uchun 5 daqiqa qoldiradi
7. leksiya mavzusi, uslubi, texnik vosita ixtiyoriy tanlanadi.

Ochiq leksiyaning eʼlon qilish 1 hafta oldin eʼlon qilinadi.

Eʼlonda: mavzu, F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni kupa, joyi va vaqti koʻrsatiladi.

Ochiq maʼruzaga yosh pedagoglar, magistrant, aspirant qatnashishi majburiy hisoblanadi.

Ochiq leksiylar muhokamasini uyushtirish va hujjatlarni rasmiylashtirish

Leksiyaning mazmun-mohiyati, ilmiy-uslubiy saviyasi muhokamasi kafedra majlisi basshyumasida qayd etiladi.

Tashqi taqriz va fikr-mulohazalar, yozma ravishda yoziladi va hujjatlar yozma ravishdagi fikr-mulohazalar, qatnashganlarning imzolari bilan, maʼruza matni, eʼlonning nusxasi oʻquv boʻlimiga yuboriladi.

Ochiq maʼruza matni va elektron versiyasi yozma ravishdagi fikr-mulohazalar imzo chekilgan va eʼlon nusxasi kafedraga topshiriladi.

Adabiyotlar

Oliy ta'lim: me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'ilami. T.2004-B.222-224.

11-amaliy mashg'ulot

Mavzu: maxsus fanlarni o'qitishda yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish

Mavzuning maqsadi: maxsus fanlarni o'qitishda o'quv ishlarini tashkil etilishini rejalashtirish

Mavzuning ahamiyati: maxsus fanlarni o'qitishda o'quv ishlarining tashkil ettirilishi va sifatini oshirilishi

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Nima uchun har chorakni oxirgi oyning 15 kuniga qadar chorak davomida amalga oshirilgan ishlar haqida hisobotlarni taqdim etish kerak?
2. Hisobotlarni quyi bosqichlarda shakllanishiga alohida e'tibor beriladimi?
3. Hisobotda qanday masalalar yoritiladi?
4. Muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi "Loyiha" uslubida olib borilishi mo'ljallangan.

Mashg'ulotning jihozlanishi: ma'ruza matni.

Adabiyotlar. Hujjatlar to'plami, T.2004-B.491

Bajarish uchun topshiriqlar:

1. Mavzuni daftarda yoritish
2. Mavzu bo'yicha 1 ta test savolini tuzish

USLUBIY KO'RSATMA

Respublika oliy ta'lim muassasalarining choraklar, yarim yillik va yillik hisobotlarini tartibga solish maqsadida yilning har choragi bo'yicha hisobot taqdim etiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni, xususan, ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv jarayonida qanday yangi uslublar qo'llanilayotganligi bilan bevosita bog'liqligini nazarda tutib, hisobotlarni tayyorlashda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlarni keng yoritilishi kerak.

SHuning uchun har chorakni oxirgi oyning 15 kuniga qadar, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni oliy ta'lim Vazirlikning Monitoring bo'limiga taqdim etish kerak.

Hisobotda quydagi masalalar yoritiladi:

- O‘quv jarayonida tadbiq etilgan yangiliklar (yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va boshqa uslublar)
- Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning ko‘lami
- Yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanma va muammoli ma’ruza matnlari
- Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi va boshqa innovatsiyalar
- Professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish holati (shu jumladan xorijiy davlatlarda)
- Investitsiyalarni jalb etish holati
- Mazkur masalalar bo‘yicha qanday muammolar mavjud, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

O‘zlashtirishni tekshirish

Magistrlar mavzu bo‘yicha 1 vaziyatli masala tuzishadi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. .Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva – Toshkent : Cho‘lpon NMIU, 2012. 208 b.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420b

3. Qo‘shimcha adabiyotlar

3. Tadjibaeva D., Yo‘ldoshev A, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.” T-2009.-235b.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида”ги П Қ-2909-сон қарори қабул қилинди.
5. O‘zbekiston Respublikasining “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T.-1997

Internet saytlari

Ziyonet.uz

12-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: auditoriyadan tashqari ish shakllarigi rahbarlik qilish

Mavzuning maqsadi: o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va foydali mashg‘ulotlar bilan ta’minlash

Mavzuning ahamiyati: Talabalarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli o‘tqazish bo‘yicha ish rejalar

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi OO‘ va O‘MTVning buyrug‘i

2.Ushbu buyruqning belgilangan tadbirlari

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi “Aqliy hujum” uslubida olib boriladi.

Mashg‘ulotning jihazlanishi: adabiyotlar, ma’ruzalar matni va Oliy ta’limni me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. T.2004 y. B. 158

Bajarish uchun topshiriqlar

1.O‘zR OO‘ va O‘MT Vning 1999 iyul 21.09 dagi 277/201/693-sonli buyrug‘ini o‘rganib chiqilishi va daftarga yozib olinishi

2.Mavzu bo‘yicha 1 tadan test savolini tuzib topshiradi.

USLUBIY KO‘RSATMALAR

O‘zbekiston Respublikasi OO‘ va O‘MTV ning “O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va foydali mashg‘ulotlar bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 1999 iyul 21 sentyabrdagi 277/201/695-sonli buyrug‘i va uning ilovasida belgilangan tadbirlar:

-talabalarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, yotoqxonalarda istiqomat qilayotgan talaba namunali hordiq chiqarish bo‘yicha tuzilgan ish rejasi bo‘lishi

-o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlarda talaba ma’naviy-ma’rifiy dunyosini kengaytirish,ularni ijodiy faoliyatga jalb etish, san’at va sport sog‘lomlashtirish ishlariga qiziqishlarini kuchaytirish, badiiy estetik didlarni o‘stirish masalalariga e’tiborini qaratish

-bajarilgan ishlar yuzasidan har kvartalda ma’lumot berib turish

Adabiyotlar: ma’ruza matni, oliy ta’lim me’yotiy huquqiy va uslubiy xujjatlar to‘plami. Toshkent. 2004. – B. 158.

13-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash

Mavzuning maqsadi: maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llanishni o‘zlashtirish.

Mavzuning ahamiyati: o‘qitish jarayonida internet materiallari, darsliklar, slaydlardan foydalanishni o‘rgatish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1.Respublika Prezidenti I.A. Karimov Vazirlar Maxkamasining 2007-iyul 13-fevraldagi majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlab aytgan gaplari

2. Texnik vositalardan dars jarayonida foydalanish qanday ahamiyatga ega?
 3. Ta'lim vositalariga nimalar kitadi?
 4. Texnik vositalardan o'quv jarayonida foydalanishning qanday afzalligi va kamchiliklari bor?
 5. Sizningcha, albatta har bir mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki texnik vositalardan foydalanish shartmi?
 6. Doskadan foydalanishni asosiy afzalligi va kamchiliklari nimada?
 7. Darsda videoproektorlardan foydalanishning qanday ijobiy tomonlari bor deb o'ylaysiz?
 8. Multimediya nima va nima sababdan hozirda undan keng foydalaniladi?
- Mustaqil tayyorlash uchun savollar muxokamasi pedagogik texnologiyalarning "Loiyha" uslubi erdamida olib boriladi.

Bajarish uchun vazifalar

1. Axborot texnologiyalari tushunchasini daftarda keltiring
2. Axborot texnologiyalarining asosiylarini keltiring
3. Darsda o'zlashtirgan asosiy tayanch tushunchalari atamalarni yozing
4. Mavzu bo'yicha 3 tadan test savollarini tuzing

Mashg'ulotning jihozlanishi: ma'ruza matni, adabietlar va ko'rgazmali qurollar

USLUBIY KO'RSATMA

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi.

Respublika Prezidenti I.A. Karimov Vazirlar Maxkamasining 2007-yil 13-fevraldagi majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek "Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohalar bo'yicha qo'llash imkoniyatlarini izlash, jarayonlarida ishtirok etish, eng avvalo bu boradagi bilimlarni beruvchi, targ'ib etuvchi pedagogik kadr va mutaxassislarni taqozo etadi". I.A. Karimov

Axborot texnologiyalari (AT) –bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarashi bo'yicha imkoniyatlarni kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, AT deganda ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

AT,1-chidan axborotning ishlov berish majmui

2-chidan bu jarayonlarning tasviridir.

Zamonaviy AT o'quv jarayoniga tadbiiq etilishi ta'limga yangicha o'quv metodlarini keng qo'llashga imkoniyat beradi.

O'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni bajarish imkoniga ega.

Natijada uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atash mumkin. U:

-talabalarga o'rganayotgan mavzusi bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish

-o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish

-talabani xoxish,talab,e'tiborlari , qiziqishlarini qondirish

-talabalarning bilimni ko'nikmalarini sinash bilan bog'lik texnik ishlardan ozod qilish

-samarali aloqa o'rnatish

-Talabalarni o'zlashtirish bo'yicha ob'ektiv xisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

ATdan asosiy o'rinda multimedia turadi.Multimedia informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio video, matn, grafika, animatsiya (ob'ektlarni ekrandagi xarakati) jadvallari asosida o'quv materiallarni talabalarga etkazib berishining mujassamlashgan xoldagi ko'rinishidir.



Multimedyaning afzalliklari:

Materialni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirilishi

Yangi sohalar bilan yangidan aloqa ortishi

Vaqtни tejalishi

Ma'lumotlar vizuallashtirilishi

Bilimlar xotirada uzoq muddat saqlanishi

Kompyuter dasturi:

Power Point dasturi multimedia tayyorlashda juda katta imkoniyatlarga ega.

Power Point dasturida mavzuni o'rganish yoki taqdimot materiallarini tayyorlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Maqsad, undan kelib chiqqan g'oya
2. G'oyani asoslash uchun ma'lumotlar
3. Yig'ilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun reja tuzish
4. Fikrlar matnda ifodalanadi
5. Mavzuga dizayn tanlash
6. Muvofiq ravishda animatsiya tanlash

Xulosa

Eng keng qo'llaniladigan va eng kam chiqin talab qilinadigan vosita – bu doska.

Hozir doskani zamonaviy turlari: doska – stend, doka – bloknot va boshqa qo'llanilmoqda.

Texnik vositalardan keng qo'llaniladigan bu proektor xisoblanadi.

Keyin multimedia turadi.

Adabiyotlar:

1. Tojiboeva D, Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. 2009. B.414 – 419.

14- amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'qitish jarayonida interfaol texnologiyalarni qo'llash

Mavzuning maqsadi: o'qitish jarayonida interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'yicha usullarni o'zlashtirish

Mavzuning ahamiyati: o'qitish jarayonida interfaol texnologiyalarini qullash uslubini bilish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda turli metodlarni qo'llash zarurligi, sabablari
2. Axborot qanday tarzda qabul qilinishi kerak?
3. An'anaviy dars o'tish metodi bilan talabalarni faolligini oshiruvchi interfaol metodlar qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
4. Turli metodlarni qo'llab dars o'tishning ijobiy tamonlari
5. O'quv jaraenini tashkil qilishda qanday qiyinchiliklar bo'lishi mumkin?
6. Dars o'tishining asosiy metodlarini sanab bering .Ularni qisqacha ta'rifi
7. Dars o'tish metodlarini qanday mezonlarga ko'ra tanlash mumkin?
8. Maxsus fanlarni o'qitishda interfaol texnologiyalarni qo'llash
9. Berilgan axborotni eslab qolish darajasi eng yuqori qachon bo'ladi?

Buning sababi nimada?

Mustaqil tayyorlash uchun savollarni pedagogik texnologiyalarning "Klaster" usulida muxokamasini o'tkazing.

Bajarish uchun topshiriqlar

1. Mustaqil tayyorlash uchun o'z savolingizni "Klaster" zanjiri ko'rinishida ifodalang
2. Mavzu bo'yicha 2-dan test savolini tuzing

Mashg'ulotning jhozlanishi. Ma'ruza matni, adabiyotlar, O'zR qonunlari.

1. Oliy ta'lim me'riy-xuquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. T. 2004 – 511 b.
2. Tadjibaeva D, Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. 2009 – B. 86 – 103

3. Azizxodjaeva N, N, Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T. 2005 – s. 124 – 134.

USLUBIY KO'RSATMA

Dars o'tishdan asosiy maqsad – tayyor bilimni o'zlashtirish emas, eng asosiysi, talabning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Dars o'tish metodini tanlash zaruriyati:

-dars qiziqarli bo'lishi, talabani diqqatini qaratish

-darsni o'zlashtirish, bilimni qabul qilish

-talabalarni fikrlash doirasini shakllantirish.

Talabalar uchun tahliliy fikr yuritish foydali

(Jahon pedagogikasi tajribasidan)

Taxliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir.

Har kimning fikr yuritishi individual xarakterga ega va u axborot qabul qilishda ham ifodalaydi.

Psixologlar odamlarni introvert va ekstrovert guruxlarga bo'lishadi.

Introvert: kitob o'qish, adabiyotlarni konspekt qilish, nazorat ishi, referat, doklad yozishni yoqtirishadi.

Ekstravert: faol ishlarni, kichik guruxlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar kabilarni yoqtiradi.

Olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati odamlarda har xil.

Axborotni eslab qolish qobiliyati: 89 – betga qaralsin. Tojiboeva D. Kitobidan.

Interfaol metodlarini qo'llash.

Dars o'tishda metodlarni shartli ravishda:

1.an'anaviy

2. Interfaol metodlarga ajratish mumkin

1-chisida ko'proq tushunchalarga qaratiladi

2-chisida bilim berish emas, talabalarda mustaqil ravishda o'qishni,ya'ni o'qishga va o'qishga o'rgatadi.

Interaktiv metodlar talabalarni o'z fikrini ifodalash uchun keng imkoniyat yaryatib berib qolmay, o'rtoqlarning fikri, asoslari, dalillarini tinglab o'z fikridan qaytish yoki fikrini tamomila o'zgartirish mumkin.

Bu usulda boshqalarning fikriga xurmat bilan qarashda, sabr-toqat bilan eshitishga xam o'rgatadi. Xamkorlik muhitini yaratishning real imkoniyatini yaratadi.

Ta'limning interaktiv metodlari pedagoglarda:

Darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi

O'quv materialini puxta o'zlashtirish imkonini beradi

Talabaning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi

Barcha talablarni o'quv jarayoniga tortish, faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi

Guruhda ijobiy psixologik iqlim, muxit yaratadi.

Dars o'tish metodlari

1.To'g'ridan-tug'ri bayon qilish usuli (ma'ruza o'qish)

2.Guruxlarda juftlik yoki kichik guruxlarga bo'linib ishlash (o'zaro fikr almashish,muloqot qilish)

3.Itervyu – bir yoki bir necha kishilardan axborot olish (aniq maqsadga qaratilgan so'rob javob)

4.Darsni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish (mavzu muxokamasi)

5.Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar (talabalar belgilangan rollarni bajaradilar)

6.Referat (baholash nuqtai nazardan neytral pozitsiyadaturgan xolda mavzu og'zaki axborot bo'lib, aniq ob'ektiv struktura kitob risola mazmunini qisqa bayoni)

7.Doklad yoki qisqacha doklad (muammoni baxolash bo'yicha bayon qilinishi)

8.Masala yoki mashq echish (nazariy bilimni mustaxkamlash, amaliy ko'nikmaga ega bo'lish)

9.Tadqiqot metodi (muammoni qo'shib, xulosa chiqariladi)

10. Aqliy shturm metodi (xar bir gurux yoki aloxida talabalar tomonidan fikr va muloxazalar bildiradilar)

11. Konkurs (tanlov)lar o'tkazish

Dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari

1. Motivatsiya bo'lishi – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ehtiyojini qondirishda yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u.

2. O'quv materialining murakkabligi va miqdori

3. O'rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o'rganadigan mavzularga bog'liq

4. Talabaning o'rtacha bilim darajasi

5. Dars o'tish qiyn bo'lgan gurux talabalarining bilim darajasi bir biridan keskin farq qiladigan guruxlar

6. Talabalarning faolligi qiziqishi

7. Dars o'tish metodining ustun darajada bajaradigan funksiyalari

8. Olinadigan bilim, malakaning zaruriy manbalariga ko'ra

9. Modiy-texnik baza, o'qitishning tashkiliy shart-sharoitlari

10. Guruxdagi talabalar soni

Dars o'tishda samarali metodlarni qo'llash-bu mavjud turli tuman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo'llash tushuniladi.

15 – amaliy mashg'ulot

Mavzu: Seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi

Mavzuni yozishdan maqsad: seminar va amaliy mashg'ulotlarning o'tkazish texnologiyasini o'zlashtirish

Mavzuning ahamiyati – seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'quv jarayonida tutgan o'rnini bilish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Seminar dars va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni

2. Seminarning bajaradigan funksiyalari

3. Seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish (uslubiy ko'rsatmalar)

- 4.Seminar darsini texnologik yondoshuv asosida tashkil etish
- 5.Seminar darsining afzallaklari
- 6.Amaliy mashg‘ulotlarda masala, mashq echishni o‘rni
- 7.Testlar xaqida nima bilasiz? Ularning afzallik va kamchiliklari
- 8.Test tuzish qoidalari
- 9.O‘zingiz talab darajasida test tuza olasizmi?

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muxokamasini pedagogik texnologiyalardan “Aqliy xujum” uslubida olib boriladi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi: ma’ruza matni.

Adabiyotlar:

1. Tadjibaeva D, Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T. 2009 – B.152 -176, B.280-279
2. Azixodjaeva N,N, Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T. 2005 – s.91,93 – 98, 99 - 103

Bajarish uchun topshiriqlar

- 1.Seminar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasini daftarda ifodalang
2. Mavzu bo‘yicha 1 vaziyatli masala va 1 test savolini tuzing.

USLUBIY KO‘RSATMA

Ma’ruza bilan birgalikda amaliy mashg‘ulot o‘quv jarayonining muhim shakllariga kiradi. U ta’lim, tarbiya berish hamda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash funksiyasini bajaradi.

Amaliy mashg‘ulot keng ma’noda – seminar.

Seminar amaliy mashg‘ulotning shakllaridan biri bo‘lib:

- Ma’ruzada bayon qilingan nazariy masalalarni mustahkamlash
- Fan bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish
- Talabalarni ilmiy tadqiqot bilish qobiliyatlarini o‘stirish vazifasini bajaradi

Seminar darsi talabalarni bilim olishlari, puxta o‘zlashtirishlari va logan bilimlarini real hayotda qo‘llashini o‘rganishlarida aloxida o‘rin tutadi.

Seminar (lot. Seminariym – manba, maktab) o‘quv amaliy mashg‘ulot shakllaridan biri.

Seminarining uch turi bor:

1. Fanni chuqur o‘rganishga yordam beoadi
2. Muammo yoki muhim mavzuni o‘rganish uchun
3. Tadqiqot xarakteridagi seminar

Seminarning funksiyalari:

1. Talablarga professional ta’lim berish va tarbiyalash
2. Mustaqil ishlash malakasini o‘stirish
3. Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish
4. Nutqini o‘stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o‘rgatish
5. Mustaqil fikr yuritish va o‘z o‘rtoqlashish
6. O‘rtoqlari fikrini tanqiliy baxolashga o‘rgatish
7. Talabalar bilimni nazorat qilish va baxolash
8. Nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash

Seminar darsini o‘tish uchun 3 qismga darsni bo‘lish mumkin:

1. Kirish
2. Dars o‘tish
3. Darsni yakunlash

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarga individual yondoshishning imkoniyati katta. Agar qiyinchilik chiqsa, o‘qituvchining tushuntirishi, ayrim masalalarni aniqlashtirish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi orqali tezda yordam yuborish mumkin bo‘ladi.

16-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

Mavzuning yozishdan maqsadi: laboratoriya mashg‘ulotlarini sifatli o‘tish uchun to‘g‘ri etish va o‘tkazish metodikasini o‘zlashtirish

Mavzuning ahamiyati: laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy talablarga binoan o‘tkazish va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va nazoratini ta’minlash.

Mustaqil tayorlash uchun savollar

1. Laboratoriya mashg‘ulotlarining asosiy qismlari
2. Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uslublarini keltiring
3. Laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha vaziyatli masalalar mohiyati
4. Laboratoriya ishining topshiriqlari nimalardan iborat bo‘ladi?
5. Mustaqil tayyorlash uchun savollar nima?
6. Uslubiy ta’minaot va mashg‘uloning jhozlanishida nimalar ko‘rsatiladi?
7. Laboratoriya mashg‘ulotining qo‘llanmasida uslubiy qo‘rsatmada qanday ma’lumot keltirishi kerak?
8. Talabalar tomonidan o‘zlashtirganligi qanday tekshiriladi?
9. Mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirish qoidalari.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi “Loyixa” uslubida olib boriladi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi: adabiyotlar, ma’ruza matni va uslubiy qo‘llanma (misol)

Bajarish uchun topshiriqlar

1. Gomeopatik dorilar texnologiyasi mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv

uslubiy qo‘llanmani (misol tariqasida) qo‘rib chiqish va daftarda strukturasi yozish.

USLUBIY KO‘RSATMA

Darslar tuzilgan uslubiy qo‘llanma asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy talablariga muvofiq o‘tkazish va etrli darajada amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va nazorat qilishni ta’minlash kerak.

Uslubiy qo‘llanma asosiy quyidagi qismlardan tashkil topgan bo‘ladi:

- Mavzuni yozishdan maqsad
- Mavzuni ahamiyati
- Vaziyatli masalalar
- Mustaqil tayyorlash uchun savollar
- Laboratoriya ishining topshiriqlari
- Uslubiy ta’minoti va mashg‘ulot jihozlanishi
- Talabalarning o‘zlashtirishini tekshirish

Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli uslublarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Mavzuni talabalar tomonidan o‘zlashtirganligi nazorati uchun test savollari va vaziyatli masalalar keltiriladi.

Qo‘llanmada mavzularga tegishli qisqa ma’lumotlar ham keltiriladi

Oxirida albatta adabiyotlar ro‘yxati bo‘ladi.

17-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maxsus fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’lim va uni tashkil etish metodikasi

Mavzuni yozishdan maqsad: maxsus fanlarni o‘qitishda mustaqil ish va uning tutgan o‘rnini o‘zlashtirish

Mavzuning ahamiyati. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil ishlari va uni tashkil etish masalasini o‘rganish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. O‘quv jarayonida mustaqil ishlarning tutgan o‘rni qanday?
2. Nima sababdan mustaqil ta’limga alohida e’tibor qaratiladi?
3. Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi nima? U qanday vazifalarni bajaradi?
4. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning qanday asosiy prinsiplarini bilasiz?
5. Talabalar vaqtini samarali taqsimlash deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muhokamasi pedagogik texnologiyalardan Klaster uslubida olib borish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi: adabiyotlar, ma’ruza matni va boshqa kerakli hujjatlar to‘plami.

Uslubiy ko‘rsatma

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida” qonun qabul qilishdan maqsad, raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis tayyorlashdir.

Bu maqsadni amalga oshirishda talabalarni o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt byudjeti, tadqiqot ob’ekti alohida ahamiyatga ega.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad o‘qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlanitirishdir.

Talabaning mustaqil ish vazifalari:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish
- Kerakli ma’lumotlar izlab topib, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash
- Axborot manbalardan samalari foydalanish
- An’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yriy hujjatlar bilan ishlash
- Elektron o‘quv adabiyotlar banki ishlash
- Internet tarmog‘idan samarali foydalanish
- Berilgan topshiriqni muntazam bajarish
- Ma’lumotlar bazasini tahlil etish
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish
- Natijalarini muhokamaga tayyorlash, kamchiliklarni qayta ishlash

- Ishlab chiqilgan loyixani asoslash, himoya qilish
Mustaqil ishni tashkil qilish (MI)
 1. MI ni tashkil etishning muhim xususiyatlari, uni talabaning o‘zi tashkil qiladi.
 2. MI jarayonida bilimlarni egallash bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.
 3. Talabalar mustaqil ishlash vaqtini ham mustaqil ravishda o‘zlari belgilaydi.
 4. MI bajarish uchun talaba o‘zini-o‘zi majbur qilishi kerak.

MI ni tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili:

1. Uning muntazamligidir, ya’ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir
2. MI ni bajarish muddati jihatidan xoxlagancha davom etish mumkin emasligi
3. MI ni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega ekanligi

MI shakllari

1. Dars o‘tilgandan so‘ng bajariladigan ishlar, darslik bilan ishlash, konspekt tayyorlash
2. Topshiriqlarni echish. Masalan: masala, mashq echish
3. Talaba bilimlaridan yangi sharoitda foydalanishi
4. Ijodiy faoliyatga asos yaratish.

Mustaqil ta’lim mavzuni va hajmi fan asosida ko‘rsatish.

O‘zlashtirishni tekshirish.

Magistrlar mavzu bo‘yicha 1 test savolni tuzishadi.

Adabiyotlar.

Tadjibaeva D, Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T. 2009 – B.420-430

18-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maxsus fanlardan kurs ishini tayyorlash metodikasi

Mavzuni yozishdan maqsad: maxsus fanlarni o‘qitishda mustaqil ish va uning tutgan o‘rnini o‘zlashtirish

Mavzuning ahamiyati. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil ishlari va uni tashkil etish masalasini o‘rganish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Kurs ishining maqsadi va vazifalari
2. Kurs ishini bajarilishidagi asosiy qoidalar
3. Kurs ishining qismlari
4. Kurs ishi mavzularning strukturasi
5. Foydalanilgan adabiyotlarni yozish qoidalari
6. Kurs ishiga rahbarlik uning himoyasi

Mustaqil tayyorlash uchun savollar “Loyixa” uslubida muhokama qilinadi.

Mashg‘ulotni jihozlanishi: ma’ruza matni, adabiyotlar:

1. Tadjibaeva D, Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T. 2009 – B.420-430.

Bajarish uchun topshiriqlar

1. Talabalar uchun yozilgan uslubiy ko‘rsatmani o‘rganib chiqish va daftarda ifodalash
2. Mavzu bo‘yicha 2 tadan test savollarini tuzish

USLUBIY KO‘RSATMA

Mustaqil izlanishning o‘quv shakllaridan biri – kurs ishi.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar maxsus fanlarini yanada chuqurroq o‘rganishadi.

Kurs ishining fanni mustaqil o‘ragnishdagi ahamiyati:

- Talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma’lumotlar to‘plash, ularni jadval, diagrammada tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o‘tilgan masala yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilishga o‘rganishadi
- Talabalar o‘zlari induktiv va deduktiv uslublarini qullab, aloxida xodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o‘rganadalar
- Kurs ishini talaba o‘zi tanlaydi. Uning hajmi 25-30 betga mo‘ljallanadi.
- Mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganib, qobiliyatini fanni o‘zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi
- Kurs ishi mavzusi faqat doirasida emas, balki qo‘shimcha adabiyotlar, jurnal, maqolalardan foydalanib yoziladi
- Kurs ishida ilmiy izlanish elementlar yoritiladi
- Ish bo‘yicha reja tuziladi va xulosa yoziladi
- Kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo‘lishi kerak
- Matn mustaqil yoziladi. Talaba kurs ishini yozishda o‘rganayotgan adabiyotlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirmay, avval o‘qib chiqib, tushuntirib taqqoslab, so‘ngra o‘zining fikrini bayon qilish lozim.

Kurs ishiga qo‘yilgan bosh talab fanni chuqur o‘rganishga erishish, ilmiy izlanishga xavas uyg‘otish.

Kurs ishida talabalarda mavzuni o‘rganishga ijodiy yondoshish, ilmiy izlanishni hosil bo‘lishida kurs raxbar muhim rol o‘ynaydi.

- Rahbar asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va mavzuni to‘la ochib berish uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligini maslaxat beradi.
- Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda talaba tushunmagan savolni raxbardan so‘raydi.
- Kurs ishida qo‘yilgan savollar o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini echib berishi zarur.

O‘zlashtirishni tekshirish.

Magistrlar mavzu bo‘yicha 1 vaziyatli masala tuzishadi.

19-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Maxsus fanlardan o‘quv amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish

Mavzuni yozishdan maqsad: maxsus fanlarni o‘qitishda mustaqil ish va uning tutgan o‘rnini o‘zlashtirish

Mavzuning ahamiyati. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil ishlari va uni tashkil etish masalasini o‘rganish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Bavalavriat yo‘nalishlari va magistratura ixtisosliklari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi nima?
2. Maxsus fanlardan o‘quv amaliyotining o‘tkazishni maqsadi?
3. O‘quv amaliyotlar shakllarini keltiring va ular qaerda keltirilgan?
4. Amaliyotni tashkil qilinishi va unga rahbarlik
5. Amaliyot natijalarini yakunlash

Mustaqil tayyorlash uchun savollr pedagogik texnologiyalarning “Blits Savol” uslubida olib boriladi.

Mashg‘ulotni jihozlanishi: adabiyotlar, ma’ruza matni va Oliy ta’lim me’yori huquqiy uslubiy hujjatlar to‘plami. T.2004-B. 225-228.

Bajarish uchun topshiriqlar

1. Daftarda berilgan savollarni yoritish
2. Ikkita test savollarni mavzu bo‘yicha tuzish

USLUBIY KO‘RSATMA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari talabalarning malakaviy amaliyotida xaqida nizom 1998 yil 30 oktyabt 305-sonli buyrug‘i bilan tastiqlangan.

Bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura ixtisosliklari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi – talabalar amaliyoti, ular ilg‘or korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o‘tkaziladi.

Talabalar fanlarning nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan, o‘qish jarayoning bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o‘tkaziladigan davomidir.

O‘quv amaliyotlar davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan turli shakllarda tashkil qilinadi.

Har bir amaliyotning maqsadi, muddati va mazmuni DTS, o‘quv rejalari va amaliyot dasturlarida belgilangan.

Talabalar amaliyoti davlat va aksiyadorlik korxonalar muassasa, tashkilot, firma, qo‘shimcha korxonalar bilan tuzgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi.

Yuridik shaxslar bilan tuzilgan kontrakt asosida o‘qiydigan talabalar amaliyotida o‘tish uchun tegishli amaliyot ob‘ektlariga yuboriladilar.

Amaliyot joylari oliy ta’lim muassasasi yaqinida joylashgan amaliyot ob‘ektlaridan tanlanadi.

Bitim asosida amaliyotni xorijiy davlat korxonalarida o‘tish mumkin. Har yili 1 dekabrtdan kechikmagan holda, navbatdagi kalendar yili uchun amaliyoti bilan shartnomalar tuziladi.

Ikki oyo oldin talabalar amaliyotini o‘tkazish uchun dasturi va kalendar jadvalini amaliyot ob‘ektlari bilan kelishib oladi.

Amaliyot rahbari tajribali professor, dotsent va o‘qituvchilardan.

Talabalar va amaliyot ob‘ektlarini amaliyot dasturlari bilan ta’minlaydi.

Ob‘ektlardagi talabalar amaliyotining tashkil etish tartibi va o‘tkazilishini hamda amaliyot muddati va mazmuniga rioya qilinishni nazotar etadi.

Amaliyot rahbari:

- Amaliyot ob‘ektlarga amaliyot boshlanishidan oldin boradi
- Talabalarning amaliyotga borishidan oldin tashkili tadbirlar (amaliyot o‘tkazish tartiblari, xavsizlik texnikasi haqida ko‘rsatmalar berish)ni o‘tkazishni ta’minlaydi
- Ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi
- Mehnat va maishiy xizmat sharoitlari me’yordagidek ta’minlanganligini nazorat qiladi
- Talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi

- Amaliyot yakunlari bo'yicha talabalar ilmiy anjumanlari tayyorlanishida va amaliy natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi.
- Talabalarning hisobotini ko'rib chikadi va kafedra mudiriga taqdim etadi.

O'zlashtirishni tekshirish.

Magistrlar mavzu bo'yicha 2 test savollarni tuzishadi.

Adabiyotlar:

Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi T.2009.

Xorijiy Adabiyotlar

1. Крыско V.P. Психология и педагогика в схемах и таблицах.-Minsk :Харвест, 1999.
2. Бескalko V.P. Слагаемые педагогической технологии. М: Педагогика, 1999.
3. Новое педагогическое мышление – М. Педагогика, 1999.
4. Лины говори на языке диаграмм. Posobie po vizualnym kommunikatsiyami dlya rukovoditeley (perevod s angliyskogo) institut kompleksnyx strategicheskix issledovaniy. Maskvo, 2004.

20-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash

Mavzuni yozishdan maqsad: maxsus fanlarni o'qitishdagi reyting tizimini qo'llash va talabalar o'zlashtirishni muntazam ravishda nazorat etib borish.

Mavzuning ahamiyati. Talabalar bilimini nazorat qilish va baxolashning reyting tizimi orqali ta'minlanishi bilish.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Reyting tizimining mohiyati
2. Reyting tizimi vazifalari
3. Baholash turlari va shakllari
4. Talaba bilimini baholash tartibi
5. Reyting natijalarini qayd qilish tartibi
6. Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida "YOzma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha namunaviy nizom
7. Magistratura talabalarining bilimini nazorat qilish va baxolashning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat nizom
8. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash namunaviy tartibi

Mustaqil tayyorlash uchun savollar muxakomasi pedagogik texnologiyalarining “Klaster” uslubi yordamida olib boriladi.

Mashg‘ulotning jihozlanishi: ma’ruza matni, adabiyotlar:

1.Oliy ta’lim – me’yoriy-huquqiy va uslubiy xujjatlar to‘plami.

T.2004-B.234-240

2.Tojibaeva D. Yo‘ldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.T.2009-B.439-449.

Bajarish uchun topshiriqlar

- 1.Reyting tizimini o‘tkazish bo‘yicha namunaviy Nizomni daftarga yozing
- 2.Kafedradagi maxsus fanlar o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan reyting nizomini ko‘rib chiqib, daftarda keltiring

USLUBIY QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi OO‘ va O‘MTV ning 1999 iyl 8 iyun 194-sonli buyrug‘i bilan “Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida, namunaviy Nizom” tasdiqlangan.

Uning oldiga qo‘yilgan maqsadi: talabalarda o‘qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondoshish mustaqil fikrlash, o‘z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va raqobatbardosh muttaxassislarni tayyorlashga erishish.

Reyting tizimi vazifalari:

-talabalar o‘zlashtirishni muntazam ravishda nazorat etib borish, semestr davomida o‘z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta’minlash

-talabalar bilimini haqqoniy aniq va adolatli baholash xamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma’lum qilish

-talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini keng rivojlantirish

-o‘qituvchilarda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, baholash savollarini tuzishda mas’uliyatini oshirish.

HORIJIY ADABIYOTLAR

1. Крыско В,Р, Психологиya i pedagogika v sxemax i tablitsax. – Minsk: Xarvest, 1999.
2. Beskalko V.P. Slagayemye pedagogichaskoy texnologii.M.: Pedagogika, 1999
3. Novoe pedagogicheskoe myshlenie – M. Pedagogika, 1989.

Jivo govori na yazyke diagramm. Posobie po vizualnym kommunikatsiyam dlya rukovoditeley (Perevod s angliyskogo) institut kompleksnykh strategicheskix issledovaniy. Moskva, 2004

II. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Magistratura talabani mustaqil ishi o'quv izlanish mavzulari bo'yicha referat tayyorlash (adabiyotlar taxlili bo'yicha qisqa ma'lumot); internetdan ma'lumot to'plash; mavzu bo'yicha test savollarini tuzish; mavzu bo'yicha bibliografik annotatsiya tayyorlash; axborot texnologiyalarni qo'llab 1-ta taqdimot majmuasini tayyorlash. MI bajarilishimuntazam nazorat qilinib, dars uchun ajratilgan reyting ballariga qo'shib boriladi. Mustaqil ishi uchun har bir semestrda 5 ball ajratiladi. Fan bo'yicha MI o'zlashtirish bali semestrlar bo'yicha to'plagan MI ballarining o'rtacha qiymatiga teng. O'quv jurnalida har bir semestr amaliy mashg'ulotdan keyin alohida ustuncha ajratilib, unga talabani mustaqil bajargan ishiga ball qo'yiladi.

TMI kafedra arxivida ro'yhatga olinadi va 2 yil mobaynida saqlanadi.

TMI ning hajmini kafedra xodimlari har bir talaba uchun quyidagi hajmda belgilaydi.

I. Agar talaba tanlagan mavzusi bo'yicha referat yoki bibliografik annotatsiya tayyorlaydigan bo'lsa:

- 5 yillik adabiyotlarni ko'rib chiqib, internet ma'lumotlaridan foydalanib, qo'lyozma shaklida 8 bet referat yoki 10 ta annotatsiya tayyorlasa - 5 ball;

- 5 yillik adabiyotlarni ko'rib chiqib, internet ma'lumotlaridan foydalanib, qo'lyozma shaklida 6 bet referat yoki 8 ta annotatsiya tayyorlasa - 4 ball

- 5 yillik adabiyotlarni ko'rib chiqib, internet ma'lumotlaridan foydalanib, qo'lyozma shaklida 4 bet referat yoki 6 ta annotatsiya tayyorlasa 3 ball bilan baholanadi.

3 betdan kam tayyorlangan referat yoki 5 ta dan kam tayyorlangan annotatsiya baholanmaydi.

II. Agar talaba tanlagan mavzu bo'yicha internetdan ma'lumot to'plasa:

-3 ta va undan ortiq sayt ma'lumotlaridan foydalansa -5 ball;

-2 ta sayt ma'lumotlaridan foydalansa -4 ball

-1 ta sayt ma'lumotlaridan foydalansa -3 ball bilan baholanadi.

III. Agar talaba tanlagan mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlasa:

- taqdimot 10 ta va undan ortiq slayddan iborat bo'lsa -5 ball;

- taqdimot 8 ta slayddan iborat bo'lsa -4 ball

- taqdimot 6 ta slayddan iborat bo'lsa -3 ball bilan baholanadi;

IV. Agar talaba tanlagan mavzu bo'yicha test savollarini tayyorlasa:

-8-10 test tuzilsa - 5 ball; 6-7 test tuzilsa - 4 ball; 4-5 test tuzilsa - 3

Mustaqil ta'lim

| t/r | Mustaqil ta'lim mavzulari | Darssoa tlarixaj mi |
|------------|--|------------------------------------|
| 1 | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining tamoyillari | 3 |
| 2 | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlash | 3 |
| 3 | Maxsus fanlarni o'qitish usullari | 4 |
| 4 | Maxsus fanlarni o'qitishdagi asosiy prinsiplar. Yangi pedagogik texnologiyalar | 4 |
| 5 | Maxsus fan bo'yicha amaliyot o'tish va kurs ishini tayyorlash | 4 |
| 6 | Maruza matnlarini tuzish va ulardan foydalanish | 3 |
| 7 | Analiz, sintez va xulosa chiqarish asosida talim jarayonini tashkil etish | 4 |
| 8 | Maxsus fanlari bo'yicha dastur, darsliklar bilan ishlash va ishchi reja tuzish | 3 |
| 9 | Pedagogik mahorat asoslari | 3 |
| 10 | Innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanish | 3 |

III. GLOSSARIY

| Termin | O‘zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|--|---|--|
| “Bilan, Bilmoqchiman, Bildim, (B/B/B)” metodi | kitob, ilmiy maqolalarning o‘qishga, bilmaganlarim o‘rganishga harakat qilishga yo‘naltirilgan metod | is based on the desire to know the meaning of all what is unclear while reading the book or scientific article |
| “Blits-o‘yin” metodi | mantiqiy mustaqil fikirlashga, harkatlar ketma-ketligini tog‘ri shhakil etishga va baholashga o‘rgatuvchi metod | develops independent thinking, proper and consistent arrangement of actions and their assessment |
| Vazifa | qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish bosqichlarining mazmuni. | is a content of actions to perform, aimed at the achievement of goals. |
| Verbal | og‘zaki ifodalash | oral explanation. |
| Davlat ta‘lim standartlari | – uzluksiz ta‘limning muayyam bosqichida tayyorlanayotgan Kadrlarning minemal darajada ega bo‘lishi lozim bo‘lgan bilan va ko‘nikmalar | a minimal scope of knowledge and skills mastered by student body undergoing a continuous educational training |
| Didaktika- | (yunon –didaklikos – o‘qitadigan, o‘rgatadigan) – pedagogikaning bilim olish, ta‘lim va tarbiya nazariyasiga oid tarkibiy qismi. Didaktika “nima?” va “nima uchun?” o‘qitish kerak savollar bilan shug‘illanadi); uglevodlar zaxirasi - glikogen holidi asosan jigarda to‘planadi. | (Greek: “didacticos” - to teach) is a teaching method that follows the theory of formation and education of the student's mind. Didactics motivates students to question everything: "What?" and "Why?". |
| Keys study metodi (case study method) | o‘quv ahborotini o‘qtuvchi-talabalarni qaror qabul qilishida o‘rgatishda muommoli vaziyat hosil | encourages students to examine the situation, to get to the bottom of a problem and propose a potential |

| | | |
|---|---|---|
| | qilib, uni yechishni o`rganish metodi | solution |
| Klaster (axborotlarni yoyish) metodi- | keng qamrovli fikr yuritish, o`rganilayotgan tushuncha (kategoria, hodisa) lar, g`oyalar o`rtasida muhim bo`lgan bog`lanishlarni aniqlash, keng ko`lamli fikr yuritish malakasini shakillantirishga qaratilgan metod pedagogic strategiya | is a teaching strategy aimed at the development of spatial reasoning that ensures: |
| Ko`nikma | o`rganish natijasida qo`lga kiritilga, biri harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlari | is an ability mastered by students while at training that allows performance of certain action in automatic mode. |
| Laboratoriya ishi | asbob-uskunalarvaboshqatexnikmos lamalardanfoydalanganholdat ajribalaro`tkazish, birorhodisanimaxsusjihozlar yordamidao`rganish | includes a conduct of experiments by means of equipment and other technical facilities. |
| Metod | yunoncha (methodos-tadqiqot yoki bilish yo`li, nazariya, ta`limot) so`zidan kelib chiqqan bo`lib : 1)tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarni tadqiq qilish , birkish yo`lli, 2) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish y`ollari 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari : 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o`zlashtirish usullari | (Greek: “methodos” – a research or educational theory) 1) the way of cognition of natural and social life; 2) the pursuit of truth; 3) the achievement of an anticipated outcome; 4) the practical or theoretical way of mastering the reality. |
| Metodologiya | Metodologiya (yunon yunon methodos va logios) | (Greek: “methodos” and “logios” – a research or |

| | | |
|------------------------|---|---|
| | faoliyatining tarkibi mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari xaqidagi ta`limot. | educational theory and science) is an integral part of an activity, a logic chain of actions, a doctrine of the method and means applied in activity. |
| Tadqiqot metodi | axborotlar, dalilar, ma`lumotlar asosida tadqiqot o`tkazish jarayoni qatnashush orqali dars o`tishining talablarini axborot to`plash va uni ustida ishlash, xulosa chiqarib, baholashga o`rgatish jarayonida mavzuning mazmunini o`zlashtirishga, ilmiy izlanishni o`rganishga qaratilgan metod | |

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

Ro'yhatga olindi

Sog'liqni saqlash vazirligi

№ _____

2020 yil ____ _____

2020 yil ____ _____

5A320406 – DORI VOSITALAR VA PREPARATLAR TEXNOLOGIYASI

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI OGUV (MODUL) DASTURI

Тошкент тиббиёт академиясининг биринчи, иккинчи ва учинчи клиникалари негизида замонавий тиббиёт таълим кластерини яратиш орқали Тошкент тиббиёт академиясининг Кўп тармоқли клиникасини ташкил этиш;

тиббиёт ва фармацевтика олий таълим муассасалари таркибий тузилмасига бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан молиялаштириладиган даволаш (амалиёт) ишлари проректори (директор ўринбосари) лавозими ва иккита штат бирликларидан иборат клиник (ўқув) базалари билан ишлаш бўлимини ташкил этиш;

тиббиёт олий таълим муассасаларида бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан таъминланувчи анатомик морглар, ўқув-биологик лаборатория (виварий)лар ва илмий-тадқиқот лабораторияларини ташкил этиш;

Тошкент врачлар малакасини ошириш институти ва тиббиёт олий таълим муассасаларида ўқув-симуляцион марказларни ташкил этиш.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги икки ой муддатда мазкур бандда назарда тутилган тиббиёт ташкилотларини қайта ташкил этиш бўйича ташкилий-амалий чора-тадбирларни амалга оширсин.

9. Белгилансинки:

а) тиббиёт олий таълим муассасаларининг клиникалари:

тиббиёт олий таълим муассасаларининг таркибий бўлинмалари ва клиник фанларни ўқитиш учун асосий база ҳисобланади, шунингдек, кафедра ходимлари билан биргаликда ўқув жараёнини ташкил этиш, аҳолига ихтисослаштирилган хизмат кўрсатиш, тиббиёт соҳасида илмий-текширув изланишларини олиб боришда фаол иштирок этади;

клиника шифокор ходимлари таркибини шакллантиришда тиббиёт олий таълим муассасаси кафедралари профессор-ўқитувчиларининг сони 50 фоиздан кам бўлмаслигини таъминлайди;

тиббиёт олий таълим муассасаси кафедралари ходимларини дарс жадвали ва ўқув режага мувофиқ етарли ўқув хоналари, шунингдек, педагогик ҳамда илмий-текшириш фаолияти учун шароитлар билан таъминлайди;

б) тиббиёт олий таълим муассасалари клиникаларининг бош шифокорлари:

яширин овоз бериш йўли орқали олий таълим муассасаси Кенгашининг тақдимномасига кўра Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазири томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимдан озод этилади;

кафедра ходимларининг тўлақонли таълим, даволаш-диагностика ва илмий фаолиятини ташкил этишни таъминлаш юзасидан шахсан жавобгар ҳисобланадилар.

10. 2019/2020 ўқув йилидан бошлаб:

Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазири томонидан тасдиқланадиган рўйхатга кўра, республиканинг олис ва етиб бориш қийин бўлган ҳудудларидаги бирламчи соғлиқни сақлаш бўғинлари давлат муассасаларида уч йилдан кам бўлмаган муддат ишлаб берган шифокорларга клиник ординатурага (резидентурага) киришда танлов синовлари натижалари бўйича йиғилган баллар суммасидан 30 фоиз миқдорида қўшимча баллар тақдим этилиши;

тиббиёт олий таълим муассасалари, малака ошириш институтлари, республика ихтисослаштирилган илмий-амалий тиббиёт марказлари, илмий-текшириш институтлари ва уларнинг филиаллари харажатларининг бюджет сметаларида назарда тутилган маблағлар доирасида, шунингдек, тўлов-контракт асосида клиник ординаторлар (резидентлар)ни ўқитишдан тушадиган маблағлар ҳисобидан клиник ординатор (резидент) раҳбарига бир йилда 100 соат ҳисобидан бир нафар клиник ординатор (резидент)га раҳбарлик учун соатбай тўловлар тўланиши белгилансин.

Тиббиёт олий таълим муассасалари раҳбарларига дарс бериш фаолиятида иштирок этиши учун даволаш-профилактика муассасаларидан жалб қилинадиган малакали мутахассисларга тўлов-контракт асосида ўқишга қараётганлар маблағлари ҳисобидан лавозим маошига 100 фоизгача бўлган миқдорда ҳар ойлик шахсий устамалар белгилаш ҳуқуқи берилсин.

11. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда:

кредит-модулли ўқитиш тизимини жорий этиш орқали олий тиббиёт ва фармацевтика таълими давлат таълим стандартлари, тиббиёт ва фармацевтика кадрларининг малакасини ошириш, қайта тайёрлаш давлат талабларини ишлаб чиқиш;

таълим жараёнида клиникагача ва клиник модуллар, шу жумладан клиник ўқув амалиёти бўйича ўқув соатларини ошириш ҳисобига амалий таркибий қисмини кучайтириш;

кредит-модул тизимини жорий этиш орқали магистратура ва клиник ординатура (резидентура)да эгалланаётган амалий кўникмаларнинг мураккаблигига боғлиқ ҳолда таълим муддатларини оптималлаштириш орқали ўқитиш жараёнини такомиллаштириш;

илғор хорижий тажрибани инобатга олган ҳолда, ўқитиш даври учун кредитлар меъёрларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, шунингдек, 100 баллик рейтинг тизимини қўллаган ҳолда ўқувчи ва талабаларнинг ҳар бир модул бўйича билим ва кўникмалари ўзлаштирилишини назорат қилишни таъминласин.

12. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги:

халқаро молия институтлари маблағлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг хайриялари, шунингдек, тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан 2020 йилдан бошлаб ҳар йили тиббиёт ва фармацевтика олий таълим муассасалари талабалари ва тиббиёт коллежларининг ўқувчилари орасида клиник фанлар бўйича Ибн Сино номидаги халқаро тиббиёт олимпиадалари, шунингдек, ёш олимлар орасида Ибн Сино номидаги халқаро илмий танловлар ўтказилишини таъминласин;

ҳар йили 1 сентябрга қадар давлат тиббиёт муассасалари ва ҳудудий соғлиқни сақлашни бошқариш ташкилотларининг талабномалари асосида республикахудудлари кесимида тиббиёт ва фармацевтика кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизими муассасалари ва бўлинмалари учун узлуксиз касбий таълим курсларида ўқитиш режаларини тасдиқласин.

13. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги бир ой муддатда тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасалари, республика илмий-амалий марказлари ва уларнинг филиаллари, илмий-текшириш институтлари учун имтиёзли юқори тезликдаги интернет-тарифларини жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқсин.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 майдаги "Ўзбекистон Республикасида тиббий таълим тизимини янада ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2956-сон қарорининг 2-банди иккинчи хатбоши ва 3-банди, шунингдек, иловаси ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

15. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда:

тиббиёт олий таълим муассасалари клиникалари, фармацевтика таълим муассасаларининг ўқув ва ўқув-амалиёт базалари намунавий низомини тасдиқлаш тўғрисидаги ҳукумат қарори лойиҳасини;

қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва кўшимчалар тўғрисидаги таклифларни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

16. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси А.А. Абдувахитов ва Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари А.А. Абдухакимов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти

Ш. Мирзиёев

Ўзбекистон Республикаси

**Президентининг
2019 йил 6 майдаги
ПҚ-4310-сон қарорига
1-ИЛОВА**

**Тиббиёт ва фармацевтика таълими ва илм-фани
tizimini yana rivojlantirish buyicha amaliy**

ЧОРА-ТАДБИРЛАР РЕЖАСИ

| Т/р | Тадбирлар номи | Амалга ошириш механизми | Молиялаш тириш манбалари | Ижро муддати | Масъул ижрочилар |
|---|--|---|--|---------------------|---|
| I. ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ТАЪЛИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | | | | | |
| 1. | 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб олий ва ўрта махсус тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларида босқичма-босқич кредит-модулли ўқитиш тизимига асосланган ўқув жараёнини ташкил этиш. Илғор халқаро тенденциялар ҳамда маҳаллий тиббиёт ва фармацевтика таълимнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда, тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларида кредит-модулли ўқитиш тизимини жорий этиш тўғрисидаги Низомни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш | Ўзбекистон Республикаси ва соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | - | 2020 йил 1 февраль | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (<i>Маджидов</i>) |
| 2. | Тиббиёт ва фармацевтика олий таълим муассасаларида етакчи хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ўқитиш рус ва инглиз тилларида олиб бориладиган халқаро факультетлар ташкил этиш, жумладан: 2019/2020 ўқув йилидан бошлаб Тошкент педиатрия тиббиёт институтида, Тошкент давлат стоматология институтида, Тошкент фармацевтика институтида, Андижон, Самарқанд ва Бухоро давлат тиббиёт | Хорижий ОТМлари билан битимлар, Ўзбекистон Республикаси ва соғлиқни сақлаш вазири буйруғи | Тегишли ОТМларининг бюджетдан ташқари маблағлари | 2019 йил 1 сентябрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (<i>Маджидов</i>), Ташқи ишлар вазирлиги (<i>Комилов</i>) |

| | | | | | |
|----|--|---|--|--|--|
| | институтларида; 2020/2021 ўқув йилдан бошлаб Тошкент тиббиёт академиясида. | | | | |
| 3. | Қуйидагилар орқали тиббиёт ва таълим соҳасидаги маҳаллий ва етакчи хорижий муассасалар ўртасидаги халқаро ҳамкорликни кенгайтириш: республикадаги ўқитувчилар, илмий ва тиббий ходимларнинг етакчи хорижий тиббиёт ва таълим муассасаларида малака ошириши ва стажировкаларини ташқил этиш; таълим, маҳорат дарслари ва тажриба алмашиш учун хорижий олимлар, ўқитувчилар, мутахассисларни таклиф этиш; халқаро конференция ва семинарларни ташқил этиш, кўшма халқаро илмий тадқиқотларни ўтказиш. | Ижрочиларн инг чора- тадбирлар комплекси, Ўзбекистон Республикаси и соғлиқни сақлаш вазири буйруғи | Ушбу мақсадлар учун ажратилди ан бюджет маблағлари, ҳомийлар ва ХМИ маблағлари, тиббиёт ОТМларининг бюджетдан ташқари маблағлари | Доимий асосда | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (<i>Маджидов</i>), Ташқи ишлар вазирлиги (<i>Комилов</i>) |
| 4. | 2019-2022 йилларда босқичма-босқич тиббиёт олий таълим муассасалари ва Тошкент врачлар малакасини ошириш институтида тиббиёт мутахассисларини тайёрлаш сифатини ошириш мақсадида амалий кўникмаларга ўргатиш учун ўқув- симуляцион марказлар ташқил этиш. | Ташкилий- амалий чора- тадбирлар | ХМИ ва ҳомийлар нинг маблағлари, муассасаларн инг бюджетдан ташқари маблағлари, Ўзбекистон Республикаси и инвестиция дастурлари доирасидаги марказлашти рилган маблағлар | 2019-2022 йиллар | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Инновацион ривожланиш вазирлиги (<i>Абдурахмон ов</i>), Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги (<i>Умурзаков</i>) |
| 5. | Тиббиёт олий таълим муассасаларида анатомик моргалар, ўқув-биологик лаборатория (виварий)лар ва илмий-тадқиқот | Ўзбекистон Республикаси и соғлиқни сақлаш вазирининг | Муассасалар нинг бюджет ва бюджетдан ташқари | 2019 йил 1 сентябрь 2019/2020 ўқув йили | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (<i>Маджидов</i>), |

| | лабораторияларини ташкил этиш. | буйруғи, ташкилий-амалий чора-тадбирлар | маблағлари доирасида | | Молия вазирлиги (<i>Аширафханов</i>) |
|----|--|---|--|--------------------|---|
| 6. | Тиббиёт олий таълим муассасалари клиникалари, тиббиёт ва фармацевтика олий ва ўрта махсус таълим муассасалари клиник ва ўқув базаларининг қувватларидан таълим жараёнида имкон қадар фойдаланган ҳолда, таълим, фан ва амалиётнинг чуқур интеграциясини таъминлаш орқали уларнинг фаолиятини такомиллаштириш. Қуйидагиларни тасдиқлаш: соғлиқни сақлаш муассасалари орасидан ўқув клиник амалиётни ўташ учун тиббиёт олий ва ўрта махсус таълим муассасалари клиник базалари рўйхатини; тиббиёт ва фармацевтика олий ва ўрта махсус таълим муассасалари ўқув ва ўқув-ишлаб чиқариш базалари рўйхатини. Тиббиёт олий таълим муассасаларининг тегишли кафедралари СанҚваМнинг ўқув аудиторияларга қўйилган талабларини инобатга олган ҳолда ОТМ ҳузуридаги клиникалар, шунингдек, тасдиқланган клиник ва ўқув базаларида жойлаштирилишини таъминлаш. | Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи, Ижрочиларнинг ташкилий чора-тадбирлар комплекси | Муассасаларнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари доирасида | 2019 йил 15 ноябрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |
| 7. | Тиббиёт ва фармацевтика ОТМларида таълим | Ўзбекистон Республикаси | - | 2019 йил 1 август | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |

| | | | | | |
|----|--|--|---|-------------------|--------------------------------------|
| | жараёнини ташкил қилиш бўйича меъёрий ҳужжатларни янада такомиллаштириш. Қуйидагиларни: битирувчиларининг малака тавсифномалари, компетенциялари, тиббиёт ва фармацевтика олий, ўрта махсус таълимининг янгиланган ўқув режа ва ўқув дастурларини; тиббиёт ва фармацевтика таълимининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда тиббиёт ва фармацевтика ОТМлари профессор-ўқитувчилари вақт меъёрларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. | и Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | | | |
| 8. | Тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларининг ўқувчилари учун, шу жумладан бакалаврият, магистратура ва клиник ординатура (резидентура) дастурлари бўйича ишлаб чиқариш амалиётини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низомни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, бунда қуйидагиларни назарда тутиш: тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларининг давлат ва хусусий тиббиёт ва фармацевтика ташкилотлари билан интеграциясини; республика тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасалари ўртасида талабаларнинг академик алмашинувини; ўқув йили семестрлари давомида амалиётни ўташ (ёзги вақишки ишлаб чиқариш амалиёти); эгалланган билим ва кўникмалар сифатини | Ўзбекистон Республикаси и соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | - | 2019 йил 1 ноябрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |

| | | | | | |
|-----|--|---|--|--------------------------------|--|
| | <p>ўқув йили яқунлангунга қадар назорат қилиш, бунда натижаларни курсдан- курсга ўтказишда инобатга олиш; амалиёт имтиҳони ва ўқув амалиётини (сифат ва сон жиҳатидан) назорат қилиш шаклида амалий билимлар назоратини жорий этиш.</p> | | | | |
| 9. | <p>Қуйидагиларни: тиббиёт муассасаларида курсдан-курсга кўчиришда асосий синов сифатида интеграциялашган клиник ва клиник-олди имтиҳонларни ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом; давлат аттестация комиссияси таркибига бюроутмачи- ташкилотлардан экспертларни кенг жалб этиш орқали давлат имтиҳонларини дастлабки аккредитация билан ўтказишнинг мустақил, шаффоф ва адолатли механизмини назарда тутувчи бакалавриат, магистратура, клиник ординатура (резидентура) битирувчиларини давлат имтиҳонидан дастлабки аккредитация билан ўтказишнинг янгиланган тартибини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш.</p> | <p>Ўзбекистон Республикаси и соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи</p> | - | <p>2019 йил 10 декабрь</p> | <p>Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>)</p> |
| 10. | <p>Тошкент врачлар малакасини ошириш институтининг клиник базасини 1-сонли Республика клиник шифохонасида жойлаштириш. Тошкент тиббиёт академиясининг Термиз филиали ва Тошкент</p> | <p>Ўзбекистон Республикаси и соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи</p> | <p>Муассасалар нинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари доирасида</p> | <p>2019 йил 1 ноябрь</p> | <p>Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>)</p> |

| | | | | | |
|----|--|---------------------------------------|---|---------------------|--|
| | тиббиёт академиясининг Фарғона филиали клиник базаларини тегишли вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказларида жойлаштириш. | | | | |
| 11 | Олий ва ўрта махсус тиббиёт ҳамда фармацевтика таълим муассасаларида тахсил олувчилар ва битирувчилар учун буюк табиблар Гиппократ ва Ибн Синоларнинг даволаш анъаналарини инобатга олган ҳолда "Ўзбекистон Республикаси шифокорининг қасамёди" ни ягона шаклда брошюра кўринишида тайёрлаш ва эълон қилиш ҳамда серияли нашр этиш. | Ташкилий-амалий чоралар | Муассасаларнинг бюджетдан ташқари маблағлари | 2019 йил 1 август | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |
| 12 | Соғлиқни сақлаш соҳасида етакчи маҳаллий ва хорижий олим ва мутахассисларни жалб этган ҳолда соғлиқни сақлаш ва фармацевт кадрларни тайёрлаш ва узлуксиз профессионал таълимни ташкил этишни ёритиш бўйича мавзуга оид телекўрсатувлар тайёрлаш. | Ижрочиларнинг чоратадбирлар комплекси | - | 2019 йил 1 сентябрь | МТРК (Ходжаев), Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |
| 13 | Тиббиёт ОТМлари, илмий-тадқиқот марказлари, илмий-тадқиқот институтлари, тиббиёт коллежларининг ўқитувчилари, илмий изланувчилари, шунингдек, тиббиёт ходимлари учун "Тиббий таълим ва фан" илмий-амалий маърифий журналини, шу жумладан унинг электрон шаклини ташкил этиш, унда қуйидагиларни чоп этишни таъминлаш: тиббиёт таълим, фан, амалиёт ва инновациялар | Ташкилий-амалий чоралар | Журнални сотишдан тушадиган бюджетдан ташқари маблағлар | 2019 йил 1 декабрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |

| | | | | | |
|------|--|--|--|---------------------|--------------------------------------|
| | соҳасидаги ижобий халқаро тажрибасини, тиббиёт ва илмий ходимларнинг хорижда малака ошириш якунларини; кейинчалик уларни амалий соғлиқни сақлашга татбиқ этган ҳолда тиббиётнинг замонавий тенденциялари, халқаро тавсиялар, протоколлар, стандартлар ҳақида маълумотлар, профилактикадаги янгиликларни, касалликларни диагностика қилиш ва даволаш, тиббий буюмлар ва ускуналар, фармацевтика препаратларини яратишнинг илғор технологиялари тўғрисида маълумотларни. | | | | |
| 14 . | 2019/2020 ўқув йилидан бошлаб: тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларида республика ихтисослаштирилган илмий-амалий тиббиёт марказлари, илмий-тадқиқот институтларининг етакчи мутахассислари ва олимлари томонидан тиббиёт ва фармацевтиканинги илғор технологиялари мавзуларига бағишланган маърузалар циклини ўқиш ҳамда маҳорат дарсларини мунтазам равишда ўтказиш; республика ихтисослаштирилган илмий-амалий тиббиёт марказлари, илмий-тадқиқот институтларининг клиник амалиётчи мутахассислари ва тиббиёт ОТМларининг клиник фанлар бўйича профессор- | Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | Муассасаларнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари доирасида | 2019 йил 1 сентябрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |

| | | | | | |
|--|---|--|--|------------------------|--------------------------------------|
| | Ўқитувчиларини тиббий-биологик кафедралар фаолияти хусусияти, анатомик морглар, ўқув-биологик лаборатория(виварий)лар ва ҳ.к.да клиникагача бўлган фанларни ўқитиш жараёнига жалб этиш орқали клиник ва клиникагача бўлган фанларнинг вертикал интеграцияси тартибини жорий этиш. | | | | |
| 15 | Тиббиёт ва фармацевтика ОТМларини қуйидагиларни назарда тутувчи ўқув адабиётлари билан таъминлаш механизмини такомиллаштириш: Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузурида Тиббиёт ва фармацевтика таълими ўқув адабиётларини тасдиқлаш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгашни ташкил этиш; хорижнинг етакчи тиббиёт ва фармацевтика таълим муассасаларининг тавсия этиладиган ўқув адабиётлари рўйхатини тузиш, шунингдек, улардан фойдаланиш амалиётини кенгайтириш; тиббиёт ва фармацевтика таълим тизими учун замонавий шакл ва кўринишдаги, шу жумладан электрон форматдаги ўқув адабиётларини яратиш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш ва киритиш | Ўзбекистон Республикаси ва Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи, ташкилий чора-тадбирлар комплекси | Ушбу мақсадлар учун назарда тутилган бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлар доирасида | 2019-2020 йиллар | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |
| II. ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | | | | | |
| 16 | Тиббиёт ва фармацевтика кадрлари учун таълимнинг кредит- | Ташкилий чора-тадбирлар | - | 2019/2020 ўқув йилидан | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (Шадманов) |

| | | | | | |
|----|---|--|---|-------------------------------|--|
| | модулли тизимига асосланган ва муаммоларга йўналтирилган модулли ўқув дастурлари, семинарлар, конференциялар, вебинарлар, маҳорат дарслари, симуляцион тренинглар ва халқаро стандартларга мувофиқ бошқа ўқитиш курслари негизида ҳар йили малака оширишни кўзда тутувчи узлуксиз касбий таълим тизимини жорий этиш. | комплекси | | бошлаб | |
| 17 | Тиббиёт ва фармацевтика кадрлари малакасини ошириш вақайта тайёрлаш курслари тингловчиларининг битта ўқитувчига тўғри келадиган ўртача йиллик сони нормативларини тиббиёт ва фармацевтика олий таълим муассасалари талабалари сонининг бакалаврият таълими тегишли йўналишлари бўйича битта ўқитувчига тўғри келадиган нисбат нормативларидан 25 фоиз паст миқдорда белгилаш. | Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | Ушбу мақсадлар учун ажратиладиган бюджет маблағлари доирасида, пуллик курсларда ўқитишдан келиб тушадиган маблағлар | 2019/2020 ўқув йилидан бошлаб | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |
| 18 | Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг сайтида соғлиқни сақлаш соҳасидаги устувор йўналишлар бўйича тиббиёт фанининг ютуқларига бағишланган бўлимни яратиш. | Ташкилий чора-тадбирлар комплекси | - | 2019 йил 1 август | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |
| 19 | Тиббиёт илмий муассасалари ва ОТМлари илмий ходимлари ва ўқитувчилари учун жаҳон илмий-техник маълумотларнинг | Ташкилий чора-тадбирлар комплекси | ХМИ ва хомийларнинг маблағлари, тиббиёт ОТМларининг | 2019 йил 1 июль | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (<i>Маджидов</i>), Инновацион ривожланиш |

| | | | | | |
|---|--|---|------------------------------|------------------|---|
| | хорижий электрон ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятини таъминлаш | | бюджетдан ташқари маблағлари | | вазирлиги (<i>Абдурахмон ов</i>) |
| 20 | Амалга оширилаётган илмий тадқиқотлар сифатини куйидагилар орқали ошириш: илмий тадқиқотлар соҳасида халқаро стандартларга риоя этиш ва уларнинг натижаларини манбалар келтириладиган Scopus, Web of Science, Thomson Reuters ва бошқа тизимларга кирувчи халқаро илмий журналларда эълон қилиш; тиббиёт ва фармацевтика соҳасидаги маҳаллий илмий журналларнинг Scopus, Web of Science, Thomson Reuters халқаро маълумотлар базаси нашрларига кириши учун шароитлар яратиш. | Ижрочиларнинг ташкилий чора-тадбирлар комплекси | - | Доимий асосда | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Инновацион ривожланиш вазирлиги (<i>Абдурахмон ов</i>) |
| 21 | Жамоатчилик асосида республика ихтисослаштирилган илмий-амалий тиббиёт марказлари ва уларнинг филиалларида, илмий-тадқиқот институтлари ҳамда тиббиёт ва фармацевтика ОТМларида ёш олимлар жамиятини ташкил этиш. Талабалар илмий тўғараклари тармоғи ишини такомиллаштириш, ёш олимлар конференциялари ва танловларини ўтказиш. | Ижрочиларнинг ташкилий чора-тадбирлар комплекси | - | 2019 йил 15 июнь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |
| IV. СОҒЛИҚНИ САҚЛАШНИНГ КАДРЛАР РЕСУРСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | | | | | |

| | | | | | |
|----|---|--|--|---|--|
| 22 | <p>Режалаштиришни такомиллаштириш ва кадрлар ресурсидан фойдаланиш мақсадида доимий янгилаб бориладиган соғлиқни сақлаш кадрларининг электрон реестрини тузиш ва унинг механизмини жорий этиш.</p> <p>Соғлиқни сақлаш тизимини кадрлар билан таъминланганлиги ҳисобини юритиш ва мониторинг қилиш бўйича ахборот тизимини яратиш.</p> | Ўзбекистон Республикаси ва соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи, ахборот тизимини яратиш | Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг бюджетдан ташқари маблағлари | 2019 йил 1 июнь 2019 йил 1 декабрь | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги (<i>Содиқов</i>) |
| 23 | <p>Сифатни бошқаришнинг замонавий принциплари ва стандартлари, кенг қамровли касб-хунар билимлари ва кадрларни бошқариш кўникмаларига (юримдик, иқтисодий, психологик, ижтимоий ва бошқалар) асосланган соғлиқни сақлашнинг бошқарув кадрлари ва тиббиёт ташкилотларининг мутахассисларини тайёрлашни такомиллаштириш.</p> | Ташкилий чоратадбирлар комплекси | - | Доимий асосда | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>) |
| 24 | <p>Халқаро тажриба ва стандартларни ҳисобга олган ҳолда иш билан таъминлашнинг замонавий, шаффоф ва адолатли механизмларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, мансаб поғоналарида кафолатланган ўсиш, ротация механизмини объектив қўллаш, тиббиёт ва фармацевтика кадрларининг фаолиятини ташқи ва ички баҳолаш.</p> | Ўзбекистон Республикаси ва соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи | - | 2019 йил 1 август | Соғлиқни сақлаш вазирлиги (<i>Шадманов</i>), Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги (<i>Кудбиев</i>) |

Modulni o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari

“FSMU”-metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etish hamda o‘quv jarayonini baxs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tqazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy kog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O‘tkazilish tartibi:

1. Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi
 - F- fikringizni bayon eting
 - S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating
 - M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchimisol keltiring
 - U- fikringizni umumlashtiring

2. O‘kuvchilar bilan bahs mavzusini yoki muammoni belgilab olinadi;

3. Kichik guruhlariga bo‘lib, tarqatilgan qog‘ozlarga fikr va misollar yoziladi;

4. Kichik guruhlarini yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilinadi;

5. O‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha fikrlar umumlashtiriladi

Loyiha” metodi

“Loyiha” interfaol ta’lim metodi kichik guruxlarda bir necha muammoli savollarni echishda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘linadi (2-3 tadan);
2. Har bir guruhga bitta savol (muammo) beriladi;
3. Guruhlarga, mustaqil ishlab, savolni echishiga 10 -20 daqiqa ajratiladi;
4. Savollar muhokamasini o‘tkazish. Buning uchun har bir guruhdan vakillar chiqib, savol echimini bayon etadi;
5. O‘qituvchining yakunlash so‘zi. O‘qituvchi berilgan javoblarni tahlil qilib, to‘ldiradi va kerak bo‘lsa baxolaydi.

“Бумеранг”услули

“Бумеранг” услубида мустақил тайёрлаш учун саволлар муҳокамасини ўтказиш бўйича қрсатма:

1. Аудиториядаги магистратура талабалари 3-4 та кичик гуруҳга бўлинади;
2. Кичик гуруҳларга саволлар бўлиб берилди ва уларга тайёрланиш ва ўзаро гуруҳ ичида муҳокамаси учун 5-8 дақиқа ажратилади;
3. Гуруҳ вакиллари алмаштириш ва янги саволларни гуруҳ ичида ўзлаштириш 5-8 дақиқа;
4. Мустақил тайёрлаш учун берилган саволлар муҳокамасини ўтказиш ва кичик гуруҳлар берган жавобларни баҳолаш

“Tarmoqlar usuli (Klaster)”

“Tarmoqlar usuli (Klaster)” fikrlarni tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘kuvchilarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishga yordam beradi, tinglovchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron bir mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun hizmat qilishi mumkin. SHuningdek, o‘tilgan mavzuni mustaxkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu esa tinglovchilarga o‘z bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga yordam beradi “Klaster” usuli bo‘yicha “yordamchi modda” so‘ziga mantiqiy zanjir tuzing (20 daqiqa ichida). Klaster usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi*:

| Klaster usuli | |
|---|---|
| Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringiz sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring | YOzuvlaringiz orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang |
| Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biron-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, unda qog‘ozga biror narsani rasmini chizing, toki boshqa g‘oya paydo bo‘lgunicha davom eting | Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq g‘oyalarni ilgari surish va mazkur g‘oyalar o‘rtasida aloqadorligini ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indi-sining sifati va aloqadorligini ko‘rsatishini cheklaimang |

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--|--|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> • yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; |

| | |
|---|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> • muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlash-tirish va o'quv topshirig'ni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; • har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; • muqobil echimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> • yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish |

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” uslubida mustaqil tayyorlash uchun savollarini muhokamasini o'tkazish bo'yicha ko'rsatma:

Mustaqil tayyorlash uchun savollar tinglovchilarga muammoli vaziyat tartibida beriladi. Vaziyatli masala bilan tanishgan tinglovchi vaziyat turi, sababi va hal qilish yo'llarini keltirilgan jadvalga bayon etadi. Javoblar tahlil qilib, baholanadi.

“Muammoli vaziyat”

| “Muammoli” vaziyat turi | “Muammoli” vaziyat sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlari |
|--------------------------------|-------------------------------------|---|
| | | |

Aqliy hujum usuli

O'qituvchi guruhga tashlagan savolga tinglovchilar miyasiga kelgan birinchi fikrlarni aytadilar. O'qituvchi yoki yordamchi bu fikrlarni doskaga yozib boradi. Tinglovchilarni boshlang'ich bilimni aniqlashda tinglovchi tomonidan faollik pasayganda biroz pauzadan so'ng o'qituvchi o'zining bir necha fikrlarini yozdirishi mumkin. So'ngra doskadagi javoblar 1 va 2-darajali yoki shu kabi guruhlab chiqib o'qituvchi tomonidan xulosalanadi. Maqsadi: Muayyan mavzu bo'yicha turli fikrlarni yig'ish.

Usulning afzalliklari:

- Tinglovchilar tomonidan darsni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida qo'llash mumkin.
- Muammoli vaziyatlarda, fikr almashishda, yangi fikrlarni yuzaga keltirish

imkoniyatini yaratadi.

- Tinglovchilarni jalb qilinishi darajasini oshiradi.
- Mashg'ulot boshida «energetik» ta'sir ko'rsatadi.
- Ma'lumotlar to'plashda har bir tinglovchi o'z hissasini qo'shadi va bundan qoniqish hissini sezadi.

TEST SAVOLLARI

1. Pedagogik texnologiyalarining kriteriyalari?
 - a) Tashkillashtirish, qaytaruvchanlik
 - b) Boshqaruvchanlik, takomillashtirish
 - c) Boshqaruvchanlik, tashkillashtirish
 - *d) boshqaruvchanligi, samaraliligi, qaytaruvchanligi
2. Pedagogik texnologiyaning qaytaruvchanligi kriteriyasining afzalligi?
 - a) Optimal natijalar olinishi
 - b) Uning bajarilishini loyihalashtirish
 - *c) DT ni boshqa ta'lim muassasalarida qo'llash mumkinligi
 - d) vositalar, metodlar bilan almashtirib turishligi
3. Pedagogik texnologiya necha daraja bo'yicha ko'riladi?
 - *a) 3 daraja bo'yicha: umum pedagogic, shaxsiy metodik, lokal (modulli)
 - b) 3 daraja bo'yicha: konsentral asos, ta'lim mazmuni, texnologik jarayon
 - c) 4 daraja bo'yicha: ilmiy, ta'rifiy, mazmunli, ta'sirli
 - d) 2 daraja bo'yicha: ishtimoiy-pedagogik va didaktik
4. Multimedaning ko'rinishi?
 - a) Matn, tasvir
 - b) Jadval, grafik
 - c) Animatsiya, video, audio
 - *d) barchasi to'g'ri
5. Multimedaning afzalliklari keltirilgan qatorni toping.
 - a) Material chuqur va mukammalroq o'zlashtiriladi
 - b) Ma'lumot faollashtiriladi
 - c) Yangi soxalar bilan yangidan aloqa o'rnatiladi; vaqt tejiladi, bilimlar xotirada uzoq saqlanadi
 - *d) barcha javob to'g'ri
6. Pedagogik texnologiyaning asosiy funksiyasi nima?
 - a) Loyihalash va boshqarish
 - *b) o'quv jarayoning maqsadiga yetishish va shaxsiy rivojlantirish
 - c) o'quvchining ijtimoiy harakatini yaxshilash
 - d) o'quv jarayonining diagnostikasini tashkil etish
7. Informatsion-kommunikatsiyasi texnologiyalariga bag'ishlangan Milliy sammit nechanchi yilda bo'lgan?
 - *a) 2003 b) 1995 c) 1983 d) 2014
8. Milliy sammit qarori nimadan iborat?
 - *a) informatsion texnologiyalarni rivojlantirish va takomillashtirilishi
 - b) oliygo'ha va maktab dasturiga yangi fan kiritilishi
 - c) aholini information darajasini oshirish
 - d) yosh avlodni xalqaro aloqalarda qatnashishi

9. Pedagogik texnologiyalarining kriteriyalariga misol keltiring
- Boshqaruvchanligi
 - Samaraliligi
 - Qaytaruvchanligi
 - * barcha javoblar to'g'ri
10. Pedagogik texnologiyaga Beskolko qanday ta'rif bergan?
- * o'quv jarayonini bajaruvchi texnika
 - pedagogic jarayonni tashkil etuvchi asbobidir
 - bu san'at, ustalik holatini o'zgartiradi
 - ta'rif berilmagan
11. Power point dasturida mavzuni o'rganish taqdimot materiallarini tayyorlash nechta bosqichni o'ziga oladi?
- * 6 ta
 - 12 ta
 - 4 ta
 - 9 ta
12. Axborot texnologiyalar foydalanishda eng qo'llaniladigan va eng kam tizim talab qilinadigan vosita nima?
- * fleshka
 - disk
 - kaseta
 - doska
13. Multimedaning qanday ko'rinishlari bor?
- Power point, grafika
 - Kino, tasvir, animatsiya
 - * tasvir, matn, animatsiya, jadval, video, audio
 - Faqat animatsiya
14. Multimedaning afzalligi
- Power point, grafika
 - Kino, tasvir, animatsiya
 - * tasvir, matn, animatsiya, jadval, video, audio
 - Faqat animatsiya
15. Pedagogik texnologiyaning texnologik jarayonini nima tashkil etadi?
- * o'qituvchi va talabning faoliyati va o'quv jarayonining boshqarish usullari
 - ta'lim jarayonining umumiy maqsadi va o'quv materiallar mazmuni
 - falsafa, psixologik, didaktik maqsadni asoslash
 - pedagogic faoliyatda o'quv jarayonini umumlashtirish
16. Ochiq leksiya e'lon qilinadimi?
- * ha, bir hafta oldin
 - yo'q, e'lon qilinmaydi
 - xa, bir kun oldin
 - xa, bir oy oldin
17. Ma'ruza so'zini ma'nosi nima?
- Arabcha leksiya
 - Lotincha lecto –o'qish
 - Grekcha leatn- ma'ruza
 - * arabcha leksiya, lotincha lecto o'qish degani
18. Og'zaki so'z bilan ifodalanadigan metodni keltiring:
- Ma'ruza
 - Suhbat o'tkazish
 - Electron variant bilan ishlash
 - * a va b javoblar to'g'ri

19. Oily ta'lim muassasalarida ochiq leksiyalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom qaysi yili qabul qilingan?
- 2003
 - 2002
 - 2004
 - *2010
20. Ochiq leksiyalarni tashkil etish tartibi?
- Reja bo'yicha kafedra mudiri bilan ma'lum qilishi
 - Kafedra mudiriga ma'lum qilish
 - * bir hafta oldin ma'lum qilinadi
 - Bir kun oldin ma'lum qilinadi
21. Dars o'tish metodini ko'rsating:
- To'g'ridan-to'g'ri bayon qilish usuli
 - Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib
 - Intervyu savol-javob o'tqaziladi
 - Referat mavzu bo'yicha og'zaki axborot berish
 - * barcha javoblar to'g'ri
22. Introvert va ekstrovert guruhlarini tushuntirib bering
- Introvertda ma'ruza eshitish, kitob o'qish, referat. Ekstravertda konspekt yozish, doklad yozishni yoqtirishadi
 - * introvertda referat, doklad, nazorat ishi, konspekt yozish, kitob o'qish ekstravertda kichik guruhlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar o'tkazishda qatnashishni yoqtirishadi
 - Ikkalasida ham darsni faqat qiziqarli qilib o'tadigan kishilar
 - Ekstravertda dokladni yoqtirishadi
23. Munozara, birga muhokama usulida olib boriladigan darsning axborotini eslab qolish darajasi necha foiz?
- 5%
 - 20%
 - *40%
 - 75%
24. Ma'ruza so'zining ma'nosi?
- Lotincha-tinglayman
 - *arabcha –o'qish, o'quv materiali
 - Yunoncha-ma'lum bir tizimga solingan fan
 - Lotincha-lecto ketma-ket

Modul bo'yicha talabalar bilimni baxolash va nazorat qilish mezonlari

Talabalar bilimni nazorat qilish JN va YaN turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. JN semestr davomida ishchi o'quv dasturda keltirilgan mavzular bo'yicha talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maksadida o'quv mashg'ulotlari davomida 20 marta o'tkaziladi. Fan semestr davomida haftasiga 4 akademik soatdan kam (3soat) o'qitilishini hisobga olib, fan bo'yicha ON turi o'tkazilmaydi.

YaN yozma ish shaklida o'tkaziladi. YaN turi o'quv-uslubiy bo'lim yoki fakultet dekanati tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv va tarbiyaviy ishlari bo'yicha prorektor tasdiqlaydigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari

Talabalarining bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr lay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

-talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

-talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Talabalar bilimni baholash

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

YaN turlarini o'tkazish, shuningdek talabalarining bilimni baholash tegishli kafedra mudiri tomonidan etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Institutda YaN turlarini o'tkazilishi uchun maxsus ishchi guruh shakllantiriladi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarini qoldirgan yoki JN qonikarsiz baho olgan va ularni qayta topshirmagan talaba YaNga kiritilmaydi.

YaN turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) YaN turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Baholash natijalarini qayd qilish

Talabalar bilimni baholash tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan Talabalarining fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi jurnalda talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimni baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi talabalarining natijalarini 3 kundan ko'p bo'lmagan muddatda jurnalga qayd etishi lozim.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yoxud «5» (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda jurnalga «0» belgisi yozib qo'yiladi.

Modul buyicha o'zlashtirish ko'rsatkichi JN va YaNlarning o'rtacha arifmetik qiymatidankelib chiqadi va butun sonlarda ifodalanadi. Bunda talaba har bir nazorat turidan kamida 3 "qoniqarli" baho olishi lozim.

Talabalarining nazorat turlarida olgan baholarni jurnalda rasmiylashtirish quyidagicha amalga oshiriladi:

Joriy nazorat o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash:

JN barcha baholari yig'indisiga mustaqil ta'lim

bahosi qo'shiladi va darslar soni+mustaqil ta'lim yig'indisiga bo'linadi

va qiymatlar zarur hollarda yaxlitlanadi:

JN(baholar yig'indisi) + TMI(baho) : $(20* + 1** = 21) = 4.7$ yaxlitlanadi - 5

JN (baholar yig'indisi) + TMI(baho): $(20* + 1** = 21) = 4.4$ yaxlitlanadi - 4

* - dars soni; ** - mustaqil ta'lim.

Talabanning tugallangan fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun JN va Ya larning o'rtacha arifmetik qiymatlari yig'indisini 2 ga bo'linadi va qiymatlar zarur hollarda yaxlitlanadi:

$5 (JN) + 4 (YaN) = 9:2 = 4.5$ yaxlitlanadi - 5

$4 (JN) + 3 (YaN) = 7:3 = 3.5$ yaxlitlanadi - 4

Talabanning tugallangan fan bo'yicha nazorat natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati $((JN+YaN):2)$ "baholash kaydnomasi"da (8-shakl) YaN ustuniga qayd etiladi va talabalarga stipendiya tayinlashda asos bo'ladi.

YaN turi bo'yicha talabanning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabanning Baholash daftariga yozilmaydi.